

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**«Himoyaga ruhsat etildi»
Pedagogika fakulteti dekani, dotsent
_____ K.M.Boymirzayev
«__» _____ 2018 y.**

5111800-Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

Sharipova Muyassarxon Umarjon qizining

**“ZAMONAVIY TARBIYACHILAR KASBIY KOMPETENTLIGINI
SHAKLLANTIRISH” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**«Himoyaga tavsiya etildi»
Maktabgacha ta'lim metodikasi
kafedrasi mudiri _____
katta o'qituvchi Z.Qoraboyeva.
«__» _____ 2018 й.**

**BMI rahbari: katta o'qituvchi
Z.Qodirova.**

Namangan – 2018

Mundarija

Kirish3-11

I.BOB. ZAMONAVIY TARBIYACHILAR KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH MASALASINING ILMIY

O'RGANILGANLIGI.....

1.1. “Kasbiy kompetentlik” tushunchasi va uning pedagogik faoliyatni rivojlantirishdagi ahamiyati.....12-16

1.2. Zamonaviy tarbiyachilarda- kasbiy va shaxsiy sifatlarni shakllantirish.....27-33

1.3. Zamonaviy tarbiyachilarning shaxsi va ularga qo'yilgan talablar.....33-36

2. BOB. ZAMONAVIY TARBIYACHILARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHGA ZAMONAVIY YODASHUVLAR.....

2.1. Zamonaviy tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning yo'llari.....37-44

2.2. Tarbiyachining o'z ustida ishlashi – kasbiy kompetentlikni shakllantirishning yetakchi vositasi sifatida.....44-50

Tajriba ishi.....51-56

Xulosa57-58

Adabiyotlar ro'yxati59-60

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. Jamiyat, fan va madaniyatning rivojlanishi ta'lim va tarbiya ishlarining qay yo'sinda olib borilishiga bog'liqdir. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, yoshlarni chuqur bilimli va barkamol shaxs taqdiri bilan bog'liqligini unutmagan holda, ushbu muammoni mahoratli, bilimli pedagoglar faoliyatiga tayanib yechish mumkinligini unutmashimiz lozim.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlagan sohasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondashgan holda muammoli vaziyatlarni to'g'ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan barkamol avlodni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 31 dekabr (Xalq so'zi) kuni matbuotda e'lon qilingan "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ushbu tizim faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish, sohani bugungi kun talablari darajasida modernizatsiya qilishga xizmat qilishi shubhasiz.

Albatta, mazkur masalaga e'tibor kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgani yo'q. Ortga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'tgan 25 yillik mustaqillik davrida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimizda ta'limni tubdan isloh qilishning muhim bosqichlari amalga oshirilib, mohiyatan hech qaysi bir davlatda mavjud bo'lmagan uzluksiz ta'lim tizimi shakllantirildi. Ya'ni, yosh avlodning maktabgacha ta'lim muassasalaridan to oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz bilim olishlari, kasb o'rganishi uchun shartsharoitlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Bu borada, ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasalari tizimini rivojlantirish, bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb etish, maktabga tayyorlash masalalari ta'lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri deb

qaraldi. Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratildi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tomonidan mazkur sohadagi islohotlar izchil davom ettirilib, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini hozirgi zamon talablari va standartlari asosida rivojlantirish, ularni rekonstruktsiya va modernizatsiya qilishga qaratilayotgan e'tibor zamirida ham kelajagimiz egalarining hech kimdan kam bo'lmay ulg'ayishlari hamda buyuk ajdodlarga munosib voris bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlashdek ezgu maqsad mujassam.

Jumladan, davlatimiz rahbarining qarori bilan tasdiqlangan Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan dasturda keng ko'lamli strategik maqsadlar, muhim vazifalar belgilangani bilan ahamiyatlidir.

Xususan, hujjatda bugungi kundagi hayotiy talab va ehtiyojlar, sohada yechimini kutayotgan masalalar hamda hali ishga solinmagan imkoniyatlar hisobga olinganligi barchamizni quvontiradi.

Ayniqsa, kelgusi besh yillikda 2200 ta maktabgacha ta'lim muassasasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, jumladan, qishloq aholi punktlarida yangi maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, uskunalar, o'quv-metodik qo'llanmalar, multimedia resurslari bilan ta'minlash hamda ushbu maqsadlar uchun jami 2,2 trillion so'm mablag' ajratilishi ko'zda tutilayotgani ushbu qaror o'z ichiga nechog'lik keng ko'lamli vazifalarni qamraganligini ko'rsatadi.

Haqiqatdan ham, bugungi kunda qishloq joylarida maktabgacha ta'lim muassasalari sonini keskin oshirish zarurati ko'rinmoqda. Ayrim qishloq sharoitida yashaydigan yosh onalar uchun bolalar bog'chasi masalasi hayotiy ehtiyojga aylangan.

Maktabgacha ta'lim muassasalari, birinchidan, maktab yoshiga qadar bo'lgan bolalarning umumiy savodini chiqarish, bolalarda Vatanni sevish, u bilan g'ururlanish hissini uyg'otish, Konstitutsiyani o'rgatish, dunyoqarashini kengaytirish imkonini berayotgan bo'lsa, ikkinchidan, yosh bolali onalarning

mehnat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarishga ham xizmat qiladi.

Qarorga muvofiq, ayni shu maqsadda joylarda xorijiy tajribadan va mamlakatimizning iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda, namunaviy loyiha asosida 70 va 120 o'rinli 50 ta zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalarining bunyod etish hamda mavjud muassasalarning 1167 tasini rekonstruktsiya qilish, 983 tasini mukammal ta'mirlash orqali kengaytirish nazarda tutilmoqda. Bu orqali bolalarning maktabgacha ta'limga qamrovini 1,5 barobar oshirishga erishiladi.

Shu bilan birga, qarorga ko'ra qishloq joylardagi maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalar badal to'lovini 30 foizgacha kamaytirish nazarda tutilayotgani kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar uchun yengillik yaratadi.

Albatta, bu boradagi islohotlar samarasini soha talablariga to'liq javob bera oladigan kadrlarsiz tasavvur etish qiyin. Shu sababli tizimdagi pedagog xodimlar mahoratini ilg'or usullar orqali muntazam oshirib borish mexanizmini yaratish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq etgan holda, uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini takomillashtirish masalasi ham dolzarb sanaladi.

Ayni shu omillarni inobatga olgan holda qarorda maktabgacha ta'lim muassasalari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o'quv reja va dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan holda takomillashtirish vazifasi belgilangani ayni muddaodir. Chunki, biz o'z oldimizga farzandlarimizning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadini qo'ygan ekanmiz, shubhasiz, pedagog-tarbiyachilarning malakasini oshirish borasidagi mavjud tajribalarni zamonaviy talablar darajasida takomillashtirishimiz zarur. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim muassasalarini psixolog, defektolog kabi mutaxassislar bilan ta'minlash ham bugungi kun talabidir.

Shuning barobarida maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olinmagan bolalarni maktabga tayyorlashda qisqa muddatli tayyorlov guruhlarining roli muhim sanaladi. Ayni shu sababli kelgusida bolalarni maktabga tayyorlashning

muqobil shakli bo'lgan 6100 ta qisqa muddatli guruhni tashkil etish ko'zda tutilmoqda.

Qolaversa, maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilinmagan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ota-onalarning pedagogik-psixologik bilimlarini oshirish ham maqsadga muvofiq sanaladi. Davlatimiz rahbarining mazkur qarorida 3-6 yoshdagi maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olinmagan bolalarni ularning ota-onalarini metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash orqali maktab ta'limiga tayyorlashni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilgani bolalarni ta'limning keyingi bosqichiga tayyorlash darajasini yuksaltiradi.

Shu o'rinda maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarni intellektual, jismoniy, axloqiy jihatdan tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, bolalarni maktabga sifatli tayyorlash maqsadida turli to'garaklar, ma'naviyat va ekologiya xonalari, kichik muzey, kutubxonalar tashkil etish borasidagi an'analarni izchil davom ettirish maqsadga muvofiq. Chunki kitobga, san'atga, ilmga, umuman, kelajakda muayyan kasbni egallashga bo'lgan qiziqish bolalarda ayni shu davrda shakllanadi.

Muxtasar aytganda, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida har tomonlama qulay shartsharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Bugungi qaror va farmonlarni bajarilishi maktabgacha ta'lim muassasalarida malakali mutaxassislarni ta'minlash va ularni bilimini va mahoratini oshirish bugungi kun talablaridan kelib chiqib amalga oshirilmoqda.

Yuqoridagi vazifalarni bajarish uchun har bir tarbiyachi kasbiy layoqatga, pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim.

Pedagogik mahorat- bu ta'lim jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, tarbiyalanuvchilarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir.

Professional bilimlar esa pedagogik mahoratning tub asosini tashqil qiladi. Pedagog bilimi, bir tomondan u ta'lim berayotgan sohadagi bilimiga, ikkinchi tomondan esa, uni tarbiyalayotgan tarbiyalanuvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'zi tarbiyachi bilimli, metodika fanlarini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi, pedagogika va psixologiya fanlaridan puxta bilimga ega bo'lishi, pedagog professional bilimlari mazmunini tashqil etadi. Professional-pedagogik bilimlarni o'ziga xosligi, ularni kompleks harakterga ega bo'lishi va har bir tarbiyachida shaxsiy «ohang» kasb etishidir.

Professional bilimlar negizida pedagog hatti-harakati va xulqining asosini tashqil etuvchi pedagogik printsiplar va qoidalar vujudga keladi. Bu printsiplar va qoidalarni har bir pedagog o'z tajribasiga tayangan holda yaratadi, Lekin ularning qonuniyatlarini ilmiy bilim yordamida aniqlaydi. Bu bilimlar doimo takomillashib borishi zarur. Buyuk pedagog A.Desterveg ta'kidlaganidek, «Ilmiy izlanishga intilmagan o'qituvchi tavakkaliga ishlash, odiylik va soxtalik kabi pedagogikadan ozdiruvchi shaytonlar qa'riga mahkum bo'ladi».

Bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishidagi eng asosiy davr — bu maktabgacha ta'lim davridir. Bu davrda ta'limning yosh avlod hayotidagi roli va ahamiyatini hisobga olgan holda, tarbiyachilarni faoliyatiga jiddiy e'tibor berilmoqda va bu vazifani bugungi kunda oliy ma'lumotli, yuksak professional mahoratga ega bo'lgan tarbiyachilarni tayyorlash masalasi dolzarb maslasidir.

Mana shu talablardan kelib chiqib, tarbiyachini pedagogik mahoratini shakllantirish va rivojlantirishning shakl va usullarini ishlab chiqishda pedagogika, psixologiya, metodika fanlarida yangi g'oyalar yaratilib katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Hozirgi kunda ham fanda pedagogik mahoratni shakllantirish va takomillashtirishni toifalash, klassifikatsiya qilish ishlari davom etmoqda. Ammo

pedagogik mahorat ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik-pedagogik, ma'naviy-ma'rifiy muammo sifatida kompleks tadbiriq qilinmoqda.

Darhaqiqat, barcha kasb-korlar tizimida tarbiyachilik kasbi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiyachi yosh qalblar kamolotining me'moridir. Bugun u yoshlarni g'oyaviy-siyosiy jihatdan chiniqtirib, tabiat, jamiyat, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi, ularni barkamol avlod qilib tarbiyalashda ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni hal etadi. Ana shu ma'suliyat tarbiyachidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishini, tarbiyalanuvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dod, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishini talab etadi.

Buning uchun doimo tarbiyachi kasbiy mahorat ustida g'amxo'rlik qilish, unga turli shart-sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy-metodik yordam ko'rsatish, tarbiyachini ijodiy tashabbuskorligini oshirishi lozim.

Shaxsiy pedagogik faoliyatni mustaqil tashqil qila olishi va mustaqil bilim olishni aniq rejalashtirish tarbiyachi mahoratini oshirishning asosiy yo'nalishlaridandir. Tarbiyachi bu yunalishda bilimlarni mustaqil qo'lga kiritish malakalariga ega bo'lishi, ilmiy-usuliy faoliyat maqsadini, yo'llarini aniq rejalashtirib olishi talab etiladi. Bundan tarbiyachi mustaqil o'z ustida ishlashining kompleks malakalariga ega bo'lishi, o'z-o'zini, ish faoliyati natijalarini tahlil qila olishi nazorat va baholashi ko'nikmalarga ega bo'lmog'i darkor.

Mustaqil bilim olish, nazariy, usuliy, amaliy tayyorgarlikni takomillashtirish quyidagicha amalga oshirilsa talabga muvofiq bo'ladi:

- a) ma'naviy-siyosiy tayyorgarlik;
- b) ilmiy -nazariy, pedagogik-psixologik va usuliy tayyorgarlik;
- v) ilg'or pedagogik tajriba, ijodkor o'qituvchilar faoliyatini o'rganish;
- g) madaniy tayyorgarlik va matbuot materiallari bilan muntazam tanishib borish.

d) ta'limning tarbiyaviy imkoniyatlarini amalda qo'llay olish. Har bir o'qituvchi yoshlarni o'qitar ekan, ularni ma'lumotli qilar ekan, shu bilan birga

uning o'zida ham ilmiy dunyoqarash, ahloqiy - estetik fazilatlar, mehnat qilish malakalari shakllantiriladi. Chunonchi ta'limning o'zi tarbiyalovchi xarakterga ega.

Ilmiy pedagogik ta'limot, o'tmish ajdodlarimizning tajribasi va maktab amaliy faoliyati shundan dalolat bermoqdaki, kasbiy mohirlik, muntazam ilm olish bilan shug'ullanish, mashq qilish, takrorlash, xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosalar asosida ish olib borish orqali qo'lga kiritiladi. Pedagogik ijodkorlik va shaxsiy ilmiy-pedagogik izlanish avvalo falsafiy, pedagogik, psixologik, metodik bilimlarga ega bo'lishi, o'quv predmeti bo'yicha keng va chuqur ma'lumotlarga ega bo'lish va ularni takomillashtirib borish orqali qo'lga kiritiladi.

Mehnat, bilish, mahorat, ijod, izlanish - inson hayotining bosh mezonlaridir. Bu mezonlar faoliyat orqali shakllanadi va amalga oshiriladi - mehnat qilish, izlanish jarayonida yutuqlar qo'lga kiritiladi, mahoratga erishiladi. Pedagogik mahoratga ega bo'lish yo'lida harakat qilayotgan, izlanayotgan har qanday o'qituvchi, shubhasiz, egallashi lozim bo'lgan ilmiy-nazariy ma'lumotlarni qo'lga kiritish uchun o'qituvchilik pozitsiyasiga ega bo'lishi kerak, mazkur pozitsiya ijtimoiy jihatdan progressiv, shaxsiy jihatdan optimistik bo'lib, zamonaviy pedagogika, psixologiya, metodikaning ilg'or g'oyalarini o'zida aks ettirishi lozim. Bu o'z navbatida pedagogik jarayonga demokratik va insoparvarlik nuqtai - nazaridan yondashishni taqozo qiladi.

Zamonaviy mutaxassislariga qo'yiladigan talablardan biri – kasbiy kompetentlikdir. “Pedagogik atamalar lug'atida” “kompetentsiya – u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlik”¹ ekanligi ta'kidlangan. Bilimdonlik nafaqat o'z mutaxassisligi bo'yicha, balki fan-texnika, ishlab chiqarish, sport, san'at va madaniyat kabi sohalardagi o'zgarishlar va yangiliklardan xabardor bo'lishni ham taqozo etadi.

Zamonaviy tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish, pedagogik mahoratini shakllantirishda va takomillashtirish masalasi pedagogika, psixologiya,

¹ Pedagogik atamalar lug'ati. Tuzuvchilar: Djuraev R.X., Tolipov O'. Q., Safarova R. A va boshvalar. – T.: “Fan”, 2008 y. -62 b.

metodika, fanlari mazmunida ma'lum darajada o'z echimini topa olgan, xususan, Yu.P.Azarov, T.I. Gonobolin, N.V.Kuzmina, A.N. Sherbakov. V.A.Selastyonin. N.V.Aleksandrov, S.A.,Abdulina, D.N.Nikolaenko, A.V.Petrovskiy, V.A.Zamaxshariy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, V.A.Krutetskiy, M.G.Davletshin, N.V.Kuxarev, M.Ochilov. K.Z.Zaripov, V.A.Rozov, A.P.Spirin, J.G. Yo'ldoshev, E. Qoziev va boshqa olimlarimiz o'qituvchi pedagogik mahoratini shakllantirish va takomillashtirishning ma'lum qirralarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berganlar.

Tarbiyachining pedagogik mahoratini shakllantirish va rivojlantirishning shakl va usullarini ishlab chiqishda pedagogika, psixologiya, metodika fanlarida yangi g'oyalar yaratilib katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Hozirgi kunda ham fanda pedagogik mahoratni shakllantirish va takomillashtirishni toifalash, klassifikatsiya qilish ishlari davom etmoqda. Ammo pedagogik mahorat ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik-pedagogik, ma'naviy-ma'rifiy muammo sifatida kompleks tadbir qilinmoqda. Ayniqsa tarbiyachilarda pedagogik bilimdonlik (kompetent)likni shakllantirish maslasi fanda o'z echimini to'la topa olgan emas. Zotan, pedagogik mahorat tizimidagi qayd qilingan qismlar uzviy bog'liqlikda, bir-biriga ta'sir ko'rsatgan yoki bir-birini to'ldirgan taqdirda mohirlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik o'z muddaosiga erishadi.

Mavjud manbalarda ilgari surilgan qarashlarni umumlashtirish, ularning yo'nalishlarini o'rganish zamonaviy tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish muammosining ilmiy-nazariy tadqiq etilmaganligini tasdiqladi. Shu bois bituv malakaviy ishi mavzusi sifatida "Zamonaviy tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish" muammosi tanlandi.

Bitiruv malakaviy ishi maqsadi: Zamonaviy tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishni nazariy jihatdan asoslash hamda ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishi vazifalari:

- Zamonaviy tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishni nazariya va amaliyotdagi mavjud holatini tahlil etish;

- Zamonaviy tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini nazariy asoslash;
- Zamonaviy tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishni takomillashtirish samaradorligini aniqlash va shning amaliyotga tatbiq etish;
- Zamonaviy tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishni takomillashtirishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ularni tajriba-sinovdan o'tkazish.

Bitiruv malakaviy ishi ob'ekti: Zamonaviy tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishi predmeti:Zamonaviy tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning mazmuni, maqsadi,metod, usul va vositalari.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asoslari :

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda doir fikrlari, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston respublikasi Prezidentining nutq va ma'ruzalaridagi maktabgacha ta'limni rivojlantirish borasidagi fikrlari, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar tadqiqotimiz uchun metodologik asos bo'ldi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi: Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, 5 paragraf, xulosalar, adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

I.BOB. ZAMONAVIY TARBIYACHILAR KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH MASALASINING ILMIY O'RGANILGANLIGI.

1.1. “Kasbiy kompetentlik” tushunchasi va uning pedagogik faoliyatni rivojlantirishdagi ahamiyati.

Xalqimizning kelajagi, O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan tarbiyachiga uning saviyasi, tayyorgarligi, fidoiyligiga, yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

“Kompetentlik” tushunchasining mohiyati. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o'zida qanday kompetentlik sifatlarini yoritish zarur. Ayni o'rinda shu va shunga yondosh g'oyalar yuzasidan so'z yuritiladi.

Inglizcha **“competence”** tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita “qobiliyat” ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorini namoyon etish”ni yoritishga xizmat qiladi.

“Kompetentlik” tushunchasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni
Amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni ularni
amalda yuqori darajada qo'llay olinishi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.


Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;
 - yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;
 - davr talablarini chuqur anglaydi;
 - yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi.

Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi **sifatlar** aks etadi:



1-rasm. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar.

Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

1) psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

2) metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

3) informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

4) kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

5) innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

6) kommunikativ kompetentlik – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish.

3. Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o‘shiga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

4. Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

5. Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

Pedagog olimlarning ishlarida kompetentlikni pedagogik nuqtai nazardan yanada kengroq va sinchiklab o‘rganish imkonini beradigan turli jihatlari va tarkibiy qismlari ajratib olingan va o‘rganib chiqilgan.

S.E. Shishov tomonidan kompetentlikning quyidagi ta’riflari keltirilgan:

-o‘qish o‘rganish tufayli egallangan bilimlar, tajriba, qadriyatlar va moyilliklarga asoslangan umumiy layoqatlilik;

bilim va vaziyatlar o‘rtasidagi aloqani o‘rnata bilish qobiliyati, muammoga mos keladigan hal etish yo‘lini topish (kompetentlik deb aytish uchun birorbir vaziyatda namoyon etiladigan taqdirdagina joiz bo‘ladi, namoyon etilmagan kompetentlik – kompetentlik emas, yashirin imkoniyatlar bo‘lib qolsa ham katta gap).

L.M. Dolgova, P.V. Simonov va boshqalarning fikricha, kompetentlik – olingan bilimlarga asoslangan holda harakat qila olishlik demakdir. Namunalarga o‘xshash harakatlarni ko‘zda tutadigan “bilim, ko‘nikma va malakalardan” farqli o‘laroq, kompetentlik universal bilimlarga asoslangan holda mustaqil faoliyat tajribasini nazarda tutadi. “Kompetentlik – ijtimoiy amaliyot ko‘rinishidagi bilim va ko‘nikmalarning mavjudligi bo‘lib, u ta’lim jarayoni natijalariga ijtimoiy-madaniy talablar va jamiyat tomonidan talablar qo‘yiladigan hollarda namoyon bo‘ladi”, – deb ta’kidlaydi L.M. Dolgova.

V.V. Bashevning ta’kidlashicha, kompetentliklar – insonning individual qobiliyati bo‘lib, ular shartsharoitlar o‘zgargan paytda ushbu qobiliyatning boshqa

shartsharoitlarga ko‘cha olishida namoyon bo‘ladi. Qo‘llash sohalari ularning maxsusligi va aniqligini belgilaydi (matematik, tillar bo‘yicha, siyosiy va boshqa kompetentliklar). Jamiyatni o‘rganish sohasida samarali faoliyat ko‘rsatuvchi odam quyidagilarga qodir bo‘lishi kerak, ya’ni kompetentli odam:

- 1) o‘zi tushib qolgan vaziyatni tadqiq eta olishi;
- 2) boshqa odamlar bilan muloqot o‘rnata olishi;
- 3) qarorlar qabul qila olishi;
- 4) qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish bo‘yicha individual va jamoaviy harakatlarni tashkillashtira olishi;
- 5) faoliyatning yangi usullarini egallay olishi.

Shunday qilib, kompetentlikni layoqatlilik, tayyorlik, imkoniyatga egalik va shu bilan birga, ma’lim bir harakatlar natijasi sifatida talqin etish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, kompetentlik – faoliyatga doir kategoriya bo‘lib, sub’ektning qo‘yilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan kasbiy, ijtimoiy va boshqa faoliyati jarayonida namoyon bo‘ladi.

Kompetentlik – individning umuman jamiyatda va xususan kasbiy sohasida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi uchun zarur bo‘lgan, atrofidagi ob’ektlar va sub’ektlar bilan o‘zaro hamkorligi bo‘yicha ma’lum bir malakalari va kasbiy tajribalari shakllanganligining muayyan darajasi demakdir.

N.G. Vigotkovskiyning ta’riflashicha, kompetentlik – qo‘yilgan muammolarni hal etishga qaratilgan insonning ichki (bilim, ko‘nikma va malakalari, ma’naviy sifatlari, psixologik xususiyatlari) va tashqi (moddiytexnik, ijtimoiy) imkoniyatlarini safarbar qila olishga qodirligidir.

Psixologik nuqtainazardan, A.K. Markovanning fikricha, kompetentlik – muayyan insonning xarakteristikasi, ya’ni kasbiy talablarga munosibliги darajasi bo‘yicha insonning individual xarakteristikasi demakdir.

N.A.Muslimov o‘zining tadqiqot ishlarida o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllanganlik asosini oltita sifatlar, ya’ni motivatsion xislatlar (insonning butun hayoti davomida shakllanib, rivojlanib boruvchi tanlagan kasbiga bo‘lgan ehtiyojlari, motivlari va maqsadlarni qamrab oladi), intellektual salohiyat

(barcha rasmiy hujjatlar asosida o'qituvchi axborot va ma'lumotlarni uzatishga, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga intiladi), irodaviy sifatlar (maqsadga intiluvchanlik, ichki va tashqi to'siqlarni, jismoniy va aqliy zo'riqishlarni enga olishlik, o'zini tuta bilishlik va tashabbuskorlik xislatlari), amaliy ko'nikmalar (psixologik, pedagogik, metodik va texnik-texnologik qobiliyatlar, amallar, individning faoliyat va muloqotning turli sohalaridagi ko'nikmalari), hissiy sifatlar (o'z hissiyotlarini boshqarishning zaruriy malakalarini shakllantirishi, o'zining aniq hislari (qahr, g'azab, bezovtalik, arazlash, hasad, hamdardlik, uyalish, mag'rurlik, qo'rqish, ko'ngilchanlik, muhabbat va boshqalar)ni boshqarishi hamda o'z hissiy holatlarini va ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni tushunishi) hamda o'z-o'zini boshqara olish (maqsadlarni va ularga erishish vositalarini tanlashdagi erkinlik, vijdonlilik, o'z faoliyatiga tanqidiy yondoshuv, harakatlarning keng qamrovliligi va anglanganligi, o'z xulqini boshqalarniki bilan qiyoslab borishi, kelajakka ishonchi, o'z jismoniy va psixologik holatini talab darajasida tutib turishi va boshqara olishi) sifatleri tashkil etishini ta'kidlab o'tadi.

Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Ana shunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin.

O'z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi aytiladi:

O'zbekiston sharoitida ham pedagogga xos kasbiy kompetentlik, uning o'ziga xos jihatlari o'ranilgan bo'lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi:


Kasbiy (shu jumladan, pedagogik) kompetentlikka ega bo'lishda **o'z ustida ishlash** va **o'z-o'zini rivojlantirish** muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari **o'zini o'zi tahlil qilish** va **o'zini o'zi baholash** orqali aniqlanadi.

O'z ustida ishlash -

O'z ustida ishlash quyidagilarda ko'rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o'zlashtirish.

Pedagogning o'z ustida ishlashi bir necha bosqichda kechadi. Ular:



Pedagogning o'z ustida ishlash bosqichlari.

Pedagogning mutaxassis sifatida:

- aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish;
- pedagogik jarayon samaradorligini, o'zining ishchanlik faolligini oshirish;
- izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o'zlashtirish;
- ilg'or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo'lish;
- faoliyatiga fan-texnikaning so'nggi yangiliklarini samarali tadbiq etish;
- kasbiy ko'nikma va malakalarini takomillashtirish;
- salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo'lida olib boradigan amaliy harakati uning o'z ustida ishlashini ifodalaydi.

Tarbiyachilarning o‘z o‘stilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondasha olishlari qo‘l keladi. Ularning loyihali yondashuv asosida quyidagi modelni shakllantira olishlari maqsadga muvofiqdir. Modelda o‘z ustida ishlash bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar qayd etiladi. Har bir bosqich uchun belgilangan vazifalarning samarali hal etilishi navbatdagi bosqichga o‘tish imkonini beradi. Ma’lum bosqich vazifalari hal etilgach, tarbiyachi bu holatni alohida bandda qayd etadi (1-jadval):

1-jadval. Pedagogning o‘z ustida ishlash modeli

Bosqichlar	Ularda amalga oshiriladigan vazifalar	Qaydlar
1-bosqich		
2-bosqich		
3-bosqich		
4-bosqich		
5-bosqich		

Pedagogik faoliyat o‘z mohiyatiga ko‘ra ijodiy xarakterga ega. Ma’lumki, inson oldida biror muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug‘iladi. Tarbiyachilik faoliyati ana shunday xususiyatga ega. Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va xarakteri bilan bog‘liq. Pedagogik faoliyat kishi shaxsini, uning dunyoqarashi, e‘tiqodi, ongi, xulq- atvorini shakllantirishdek umumiy maqsadga bo‘ysungan son-sanoqsiz pedagogik masalalarni yechish jaroyondir. Tarbiyachi faoliyatidagi ijodkorlik ana shu masalalarni echish usularida, ularni hal qila olish yo‘llarini qidira topa bilishlarida ifodalanadi.

Pedagogik ijodkorlikning manbai – bu kompetentlikdir.

Kompetentlik tarbiyachining mavzuni mazmun jihatdan to‘la o‘zlashtirish, tarbiyachilarning o‘rganish, mustahkamlash, qaytarish hamda mustaqil ish uchun materialni tanlashida, o‘zining dunyoqarashini kengaytirish uchun o‘zlashtiradigan bilimlar negizida ham namoyon bo‘ladi.

“Kompetentsiya” tushunchasi lotincha “competere” so‘zidan olingan bo‘lib, loyiq, mos kelmoq degan ma’nolarni anglatadi. Keng ma’noda kompetentsiya masalaning, shuningdek, muayyan bilim sohasining mohiyatini

muvaffaqiyatli hal etishda amaliy tajribaga asoslanib, bilim va ko'nikmalarni qo'llay olish qobiliyatidir.

Kasbiy kompetentsiya – kasbiy faoliyatga oid masalalarni amaliy tajriba, bilim va ko'nikmaga tayanib muvaffaqiyatli hal eta olishga qaratilgan faoliyat. Sodda qilib aytganda, kompetentsiya – zarur (ko'zlangan) natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan faoliyat.

Tushuncha va tasavvurlar shaklidagi insonning bilish faoliyatining tuzilmasidan farqli o'laroq, kompetentsiya faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi va aniqlanadi. Amalda kompetentlik – bilim mahsuli bo'lib, amaliyotda qo'llay bilish qobiliyatidir. Shuningdek, kompetentsiya, bilimdan farqli, amaliy faoliyatsiz namoyon bo'lmaydi va uni baholay olish mumkin emas.

Kompetentlikning asosiy mezon (kriteriya) turli holatlarda, shu bilan birga asabiy vaziyatlarda ham, o'zini tuta bilishning namoyon bo'lishidir. Uning tasodifiy muvaffaqiyatli qo'llanishi hisobga kirmaydi.

Yana bir bor ta'kidlash joizki, "kompetentlik" va "kompetentsiya" o'zgaruvchan vaziyat va holatlarda barqaror natijaga erishishdir. Shuningdek, kompetentsiya bilimdan farqli vaziyatga bog'liq emas.

Kompetentsiyaning asosiy ("klyuchev'e") atamasi- jamiyatdagi inson faoliyati muvaffaqiyati uchun asos, kalit ekanligini ta'kidlaydi. Mashhur dialektik olim A.I.Xutorskiy "Klyuchev'ye kompetentsi kak komponent lichnostno-orientirovannoy paradigm' obrazovaniya" («Asosiy kompetentsiyalar ta'limning shaxsga yo'naltirilgan komponenti sifatida») asarida quyidagi kompetentsiya turlarini taklif qiladi:

- milliy qadriyatga yo'naltirilgan;
- umummilliy qadriyatlarga qaratilgan;
- o'qish-bilim olishga qaratilgan;
- informatsion;
- muloqot (kommunikatsiya);
- ijtimoiy mehnatga qaratilgan;

Kompetentlikning asosiy ta'limiy majmuasiga:

- turli axborot manbalarini o'zlashtirish usullariga asoslangan mustaqil bilim olish sohasidagi kompetentlik;
- ijtimoiy – fuqarolik faoliyatiga oid kompetentlik (fuqarolik-saylovchi, iste'molchi kabi burchlarni bajarish);
- ijtimoiy mehnat faoliyati borasidagi kompetentlik (mehnat bozorida vaziyatni tahlil qila olish, o'zining kasbiy imkoniyatlarini baholay olish, ish jarayonidagi o'zaro munosabatlarda me'yor va etikaga rioya qilish, o'zini boshqara olish);
- maishiy sohadagi kompetentlik (o'z sog'ligi, oilaviy sharoit aspektlari ham kiradi);
- madaniy hordiq faoliyatidagi kompetentlik (bo'sh vaqtlarini tashkil qila olish va o'tkazish ham shunga oid).

Ta'limda kompetentlik bilan yondashuv tarbiyalanuvchilarni turli ko'nikmalarni egallash, kelajakda ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy hayotlarida samarali harakat qilishga yo'naltiradi.

Tarbiyachining vazifasi – mustaqil qaror qabul qilish, masala echimining yangicha usullarini topish, olingan natijaga mustaqil baho berish kabi vaziyatlarda samaraga erishish qobiliyatini rivojlantirish.

Bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida barcha mashg'ulotlarda qo'llaniladigan asosiy kompetentsiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishning tipik

(keng tarqalgan) metodlari :

- bolalarning avvalgi tajribalariga murojaat qilish;
- muammoli topshiriqlar asosida mashg'ulotlarni tashkil etish va vaziyatlarni muhokama qilish hamda qaror qabul qilish;

Tadbirkorlik va rolli o'yinlar, mashg'ulotlar;

Loyihaviy faoliyat : hayotiy vaziyatlarga bog'liq tadqiqotchilik, ijodiy, rolli faoliyatlar, amaliyotga yo'naltirilgan (kichik) mini-loyiha va loyihalar.

Shuni esda tutish lozimki, maxsus qo'shimchalar (o'z-o'zini baholash, guruh maqsadini tahmin qilish) bilan ta'minlanmagan ba'zi shakl va metodlar

asosiy kompetentsiyalarni rivojlantirishga ko'maklashmaydi. Masalan: o'qituvchi monologi, ommaviy – yakka tartibda (frontal-individual) so'rov o'tkazish, an'anaviy shakldagi nazorat, videofil'm namoyishi, tarbiyachi tomonidan berilgan mustaqil ish.

Zamonaviy pedagog tarbiyachilarni mustaqil, rejali ishlashga, o'zining va o'zgalarning vaqtini oqilona taqsimlashga, axborotnoma(spravochnik) va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashga, tezis va referatlar yozishga o'rgatishi lozim.

Tarbiyachi umumpedagogik mahoratni professional tarzda egallagan bo'lishi:

- real mavjud ijtimoiy psixologik hodisalar holatini, ularning paydo bo'lish va rivojlanish sababalarini, shart-sharoitlari va xarakterini tahlil qila bilishi va baholay olishi;
- tarbiyalanuvchilarning bilimdonligi va tarbiya olganligi darajasini aniqlay bilishi;
- shaxs va jamoa rivojlanishini rejalashtira bilishi;
- ta'lim va tarbiyaning natijalarini o'quvchilarning duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolarni oldindan ko'ra bilishi;
- konkret pedagogik vazifani ajratib ola bilishi va aniq ifodalay olishi, uni hal etish shartlarini belgilay olishi;
- o'quv mashg'ulotlari va mashg'ulotdan tashqari faoliyatiga rahbarlik qilish yuzasidan o'z ishini rejalashtira olishi;
- ta'lim va tarbiya ishi metodlari, vositalari, tashkiliy shakllarini asosli tarzda tanlay bilishi;
- rejalashtirilgan ta'sir tizimiga nisbatan bolalar tomonidan javob tariqasidagi munosabatning xarakterini oldindan ko'ra bilishi;
- ta'lim va tarbiya materialini ta'lim va tarbiya maqsadlariga muvofiq tarzda, bolalarining maktab ta'limiga tayyorgarligini va tarbiyalanuvchi darajasini hisobga olgan holda tanlab, tahlil va sintez qila bilishi;

- mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rishi va ijodiy yondasha olishi va didaktik jihatdan aylantira olish;
- mashg'ulotni tashkiliy va pedagogik mantiqiy-psixologik jihatdan ijodiy va asosli tarzda qo'llana bilish;
- bolalarni faoliyati har xil turlarini mavjud pedagogik imkoniyatlarini aniqlab, harakatga keltira olishi;
- alohida bola va jamoa uchun topshiriqlarni pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda belgilay olishi va ular mantiqini ilgari surilayotgan tarbiyaviy maqsadlarga moslangan holda o'zgartira bilishi;
- bolalarning harakati strukturasi va ular faoliyatiga pedagoglar rahbarligini rejalashtira olish;
- ta'lim va tarbiya metodlarini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda qo'llana bilishi;
- bolalarni xulq-atvori, intizomi va faolligini idora qila bilishi;
- tashqi ko'rinishi va qilmishlariga qarab bolalarning psixik holatidagi o'zgarishlarni aniqlay bilishi, ular xulq-atvorini konkret hayotiy vaziyatlardagi xususiyatlarini tushunib etishi va izohlab bera olishi;
- o'zini hayolan tarbiyalanuvchilar o'rniga qo'yib ko'ra bilishi;
- bolalarni ergashtira olishi, ularni ijtimoiy jihatdan qimmatga ega bo'lgan yangi istiqbollarga qiziqтира bilishi;
- bolalarning umumiy vazifani bajarishi uchun guruhlarga ajratish chog'ida ularni o'zaro munosabatlarini, shaxsiy maylligi va xushlamasligini inobatga olishi;
- o'quv-tarbiya ishida qo'llanilayotgan metodlar, vositalar va tashkiliy shakllarning bir-biriga solishtirilgan holda samaradorligini aniqlay bilishi;
- professional pedagogik faoliyatdagi yutuqlar va kamchiliklarning tabiatini tahlil qila bilishi;
- o'z tajribasini tahlil qilib, umumlashtira bilishi;
- o'z tajribasini pedagogika nazariyasi bilan taqqoslab ko'rishi, o'z oldiga tadqiqiy vazifalarni qo'ygan holda tegishli metodikani qo'llay bilishi;

- erishilgan natijalarni tahlil qilish negizida navbatdagi pedagogik vazifalarni ilgari surishi va asoslab berishi kerak.

Pedagogik mahoratni tarbiyalashning ilmiy – nazariy asoslari yana bir rus pedagogi V.A Slastyonin tomonidan tadqiq qilingan. Kasbiy – pedagogik tayyorgarlik jarayonida o‘qituvchining shaxsi va kasbiy shakllanishi yo‘nalishidagi ilmiy maqolalarida V.A. Slastyonin pedagogik mahorat to‘g‘risida so‘z yuritib, shunday yozadi: - “Pedagog muntazam ravishda pedagogik nazariyalarga tayansagina, pedagogik mahoratini egallaydi. Chunki, pedagogik amaliyot doimiy ravishda pedagogik nazariyaga murojaat qilishni taqozo etadi. Birinchidan, ilmiy nazariyalar – taraqqiyotning umumiy qonuniyatlarini, tamoyillarini, qoidalarini aks ettiruvchi ilmiy bilimlardir. Amaliyot bo‘lsa, doimo aniq vaziyatga asoslanadi. Ikkinchidan, pedagogik faoliyat – falsafa, pedagogika, psixologiyaga oid bilimlar sinteziga asoslanuvchi yaxlit jarayondir. Bu bilimlar sintezsiz pedagogik amaliyotni maqsadli qurish juda mushkul”². Demak, pedagogik mahorat egasi bo‘lib, pedagogik amaliyotni to‘g‘ri va maqsadli tashkil qilish uchun ilmiy – nazariy ma’lumotlarga ega bo‘lish talab qilinar ekan, o‘qituvchi doimo uni qo‘lga kiritishga harakat qilmog‘i darkor.

Pedagogik mahoratning ilmiy – nazariy asoslarini o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimida tadqiq qilgan pedagog K. Zaripov, kasbiy pedagogik mahoratning mazmunini “Ilg‘or pedagog”, “Ijodkor o‘qituvchi”, “Novator pedagog” kesimida ko‘rib chiqadi va ularning mazmun-mohiyatini shunday ta’riflaydi. “Ilg‘or pedagog” avvalo boshqa tarbiyachilarga qaraganda o‘z ishiga ma’suliyat bilan qaraydi. Shu sohadagi ijobiy tajribalarni o‘rganib, o‘z darslarida, ta’lim muassasasidan va guruhdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda qo‘llaydi. Shu orqali u o‘qituvchilarning ta’lim va tarbiyasida muayyan yutuqlarni qo‘lga kiritadi.

“Novator tarbiyachi”, bizningcha, o‘zining yaxlit pedagogik vosita va usullari mavjudligi bilan farqlanib turadi. Shu bilan birga novator tarbiyachilarda ilmiy tahlil, o‘ziga tanqidiy ko‘z bilan qaray bilish xususiyatlari ham bo‘ladi. Ularning

² Педагогика: Учеб. пособие для студентов пед. институтов/Под ред. Ю.К. Бабанского. – М: Просвещение, 1983, 600-бет.

ko'pchiligida g'oyat murakkab, boshqalar o'ziga ishonmaydigan sharoitlarda ham o'z ishlarining to'g'ri ekanligiga ishonch bo'ladi.

“Ijodkor tarbiyachi”da ham “Ilg'or tarbiyachi”dagi xususiyatlar bo'lishi mumkin. Ularning jiddiy farqi shundaki, ilg'or pedagog mavjud manbalarni o'rganib, shular asosida ta'lim - tarbiya bo'yicha muayyan ishlarni amalga oshirsa, ijodkor tarbiyachi bor manbalarga tanqidiy ko'z bilan qaraydi. Ko'p hollarda mavjud metodik yo'l – yo'riqlarga o'z munosabatini bildirib, sharoit va vaziyat taqozosiga, o'zining imkoniyatlariga qarab mavjud tartiblardan farqli metodik usullardan foydalanadi”.

Demak, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'zida ham ilg'orlikni, ham novatorlikni (bunyodkorlikni), ham ijodkorlikni (tadqiqotchilikni) tarbiyalashi lozim.

tarbiyachi pedagogik mahoratini “tarbiyachi axloqiy shakllanishi” yo'nalishida tadqiq qilgan professor M. Ochilov pedagogik mahoratni egallashning muhim asosi axloq deb ta'kidlab, kasb axloqini shunday ta'riflaydi “Faoliyatning ma'lum bir sohasi bilan shug'ullanuvchi kishilarga taalluqli axloqiy normalar, talablar ham bor. Bunday axloq kasb (professional) axloqi deyiladi. Har bir jamiyatda hukmron bo'lgan axloq bilan kasb axloqi o'rtasida ma'lum bir munosabat mavjud. Bu umumiylik bilan xususiylik o'rtasidagi munosabatdir. Kasb axloqi umuminsoniy axloq nazariyasining qoidalari va kamchiliklarini o'zida mujassamlashtiradi, oydinlashtiradi va rivojlantiradi”.

Ma'lumki, pedagogik mahorat tizimida tarbiyachiining pedagogik nazokati (odobi) muhim o'rin tutadi. tarbiyachi nazokatsiz, kasb odobisiz yuksak cho'qqilar sari odimlay olmaydi. Masalaga shu nuqtai – nazardan yondoshilganda, professor M. Ochilovning so'zlari, o'qituvchi pedagogik mahoratiga qo'yilgan talablarga mos va hamohangdir.

Pedagogik mahoratning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, uning tarbiyachi shaxsi va kasbiy fazilatlarining o'zaro bog'liqligidadir. tarbiyachi inson sifatida shaxsiy fazilatlariga ega bo'lishi bilan birga, kasbiy, ya'ni ixtisoslik fazilatlariga ega bo'lishi lozimligini tajriba ko'rsatmoqda. Buni yuqorida kasb axloqi to'g'risida

bildirilgan fikrlar misolida ham ko‘rdik. SHuningdek, pedagog ixtisosligining ko‘pgina xususiyatlari M. Kuronov, B. Muranov va M.Ochilovlar tomonidan ishlab chiqilgan tarbiyachi professiogrammasida o‘z ifodasini topgan. Ayniqsa, M.Quronov, B. Muranovlarning o‘qituvchi professiogrammasi asosan, o‘qituvchini shaxsiy va kasbiy sifatlari, uning insoniy fazilatlarini, bilimi, tashkilotchiligi, konstruktiv, gnostik, kommunikativ malakalari, amaliy ko‘nikmalari tarzida izohlanagan.

Hususan, shaxsiy sifatlarni tizimida: milliy mafkuraviy onglik, milliy odoblilik, farosat, nozik didlik, o‘z kasbiga sadoqat va vijdoniylik, tashabbuskorlik, bolajonlik, talabchanlik, adolatparvarlik, pedagogik odob, tadbirkorlik, qat’iylik, har qanday vaziyatda o‘zini idora qila olish, millatlararo muloqot madaniyati, kuzatuvchanlik, samimiylik, topqirlik, kelajakka ishonch, xushmuomalalilik va h.k.lar kabi fazilatlar misolida ifodalangan bo‘lsa, kasbiy sifatlarni tizimida: pedagogik ziyraklik, O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘lining mohiyatini, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining besh tamoyilini, ma’naviy – axloqiy yangilanishning negizlarini bilishi, milliy tarbiyaning mohiyati va mazmunini chuqur anglashi, mukammal ilmiy-nazariy salohiyat, pedagogik ijod, o‘z fanining tarbiyaviy imkoniyatlaridan xabardorlik, pedagogik bilimlarni takomillashtirishga intilish, O‘zbekiston hukumati ichki va tashqi siyosatidan xabardorlik, o‘zbek xalqining an’analari, qadriyatlari, urf – odatlarini yaxshi anglash, siyosat, tarix, madaniyat, ma’naviyat, adabiyot va san’at, axloqshunoslik, dinshunoslik, huquqshunoslik, o‘lkashunoslik, texnikaga oid ma’lumotlardan xabardorlik, etnopedagogika, etnopsixologiyaga oid bilimlarga ega bo‘lish va h.k. tarzida o‘z echimini topgan ³.

Bo‘lajak pedagoglarda qayd qilingan milliy pedagogikaning faoliyatga tayyorlovchi yuqoridagi shaxsiy va kasbiy sifatlarga ega qilish, uning pedagogik

³ (Каранг: Куръонов М., Муранов Б. Миллий дастур ўқитувчи профессиограммасида – «Халқ таълими», 1998, 1 – сон, 42 – 45 бетлар)

mahoratini tarkib toptirishdir. Bu kadrlar tayyorlashning milliy dasturi talablarini bajarishga amaliy ko'rsatmadir.

1.2. Zamonaviy tarbiyachilarda- kasbiy va shaxsiy sifatlarni shakllantirish.

Bo'lajak tarbiyachining kasbiy shakllanishi uning jamiyatdagi o'rni, talabning pedagogika oliy o'quv yurtidagi majburiyati va vazifalariga xamda o'ziga xos individual qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi. Talabning individualligi aqliy, predmetli amaliy va mativatsion omillar bilan bog'liq bo'lib, amaliy faoliyat jarayonida ifodalanadi.

Talabning ijodiy fikrlash, olingan natijalar bilan o'rtoqlashish, qiziqishlarini muvofiqlashtirish, muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirig va ulardan amaliyot jarayonida foydalana bilish kasbiy motivlarning vujudga kelishiga olib keladi. Xar bir talabada kasbiy va shaxsiy rivojlanish o'ziga xos ravishda ko'zga tashlanadi.

Bo'lajak tarbiyachining kasbiy mahorati shunday bir idealki, unga intilish kerak bo'ladi. Kasbiy shakllanish bu uzoq davom etuvchi jarayon bo'lib, bir nechta bosqichlarga ajraladi. Xar bir talaba uchun bosqichlarning davomiyligi xamda miqdori alohida belgilanadi. Bo'lajak tarbiyachining ijodiy individualligi o'z ifodasini pedagogik amaliyotda ifodalanish usullarida, o'z ishini rasmiylashtirishdagi o'ziga xosliklarda pedagogik vaziyatlarni xal qilishda mustaqil yechimlarni topa bilishda izlanuvchan faoliyatga layoqatning mavjud bo'lishida faoliyat topshiriqlari hamda usullarini tanlashga erkin yondoshishdan, tashabbuskorlikda o'z taklif va g'oyalarini erkin ifodalashda namoyon bo'ladi.

Jahon pedagogik leksikoni qatoridan allaqachonlar «innovatsiya» tushunchasi keng o`rin olgan. Bu tushuncha «yangilik», «isloh» tushunchalarini anglatadi. Keng ma`noda qaraganda ta`lim tizimidagi har qanday o`zgarish bu - pedagogik innovatsiyadir. Dastlab bu tushunchalar ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik jarayonlarga nisbatan qo`llanar edi, so`ngra ta`lim tizimidagi har qanday yangiliklarga nisbatan ishlatiladigan bo`ldi. Pedagogik yangiliklarning texnologiya deb atalishi boisi ham shunda. Hozirgi davrga kelib pedagogik innovatsiya fani shakllandi. Pedagogik

innovatsiya - pedagogik yangiliklar, ularni baholash va pedagogik jamoa tomonidan o`zlashtirish, nihoyat, uni amaliyotda qo`llash haqidagi ta`limot sifatida qaraladi.

Har qanday pedagogik yangilik zamirida biron-bir g`oya yotadi. g`oya asosida esa o`qituvchining bolalar bilan o`zaro harakati yotadi, ya`ni: sinfda psixologik birlik vaziyatini yaratish; har bir o`quvchi o`z shaxsini o`zi namoyon etishini ta`minlash; har bir metodik yondashuv uchun o`ziga xos muloqot yo`lini tanlash; o`quvchilar tashabbusini zimdan boshqarib borish va boshqalar. Bunda o`qituvchi har bir o`quvchi qalbiga kirib borish uchun o`zining didaktik usullari, tashkiliy shakllari orqali yo`l topadi.

Hozirgi davr ta`lim taraqqiyoti yangi yo`nalish innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi. "Innovatsion pedagogika" termini va unga xos bo`lgan tadqiqotlar G`arbiy Evropa va AQSHda 60 yillarda paydo bo`lgan. Innovatsion faoliyat F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I. Zagvyazinskiy, V.A. Kan-Kalik, N.V. Kuzmina, V.A. Slatenin, A.I. Sherbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg`or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan.

X. Barnet, Dj. Basset, D. Gamilton, N. Gross, M. Mayez, A. Xeyvlok, D. Chen, R. Edem ishlarida innovatsion taraqqiyotlarni boshqarish, ta`limdagi o`zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyaning " hayoti va faoliyati" uchun zarur bo`lgan shart sharoitlar masalalari tahlil qilingan. Yangilik kiritishning psixologik aspekti amerikalik innovatik olimlardan biri E. Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo`lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilik demakdir.

Ta`lim tizimida innovatsion faoliyatning sub`ekti o`qituvchi, uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda o`qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo`ladi.

"Innovatsion ta`lim" deganda odatda o`quv jarayoniga yangi (foydali) elementlar olib kirish tushuniladi. Shuning uchun ta`lim tizimida innovatsiya o`zgartirish bilan bevosita bog`liq. Bunday o`zgartirishlar ta`lim tizimining:

- maqsadiga, mazmuniga, metod, texnologiyasiga, tashkil etish shakli va boshqaruv tizimiga;

- pedagogik faoliyatdagi o'ziga xoslik va o'quv-bilish jarayonini tashkil etishga;

- ta'lim darajalarini nazorat qilish va baholash tizimiga;

- o'quv-metodik ta'minotiga;

- tarbiyaviy ishlar tizimiga;

- o'quv reja va o'quv dasturlariga;

- o'quvchi va tarbiyachi faoliyatiga bog'liq.

Bugungi pedagogdan yangicha fikrlash, yangicha munosabatlar talab etilar ekan. Uning bilimdonligi darajasi masalasi ham o'ta muhim.

Bular quyidagilar:

- Ijtimoiy bilimdonlik

Dars mobaynida sinf bilan samarali o'zaro muomala shaklini tashkil eta olish, yoshlar bilan til toptirish va sog'lom ma'naviy muhitni hosil qila olish qobiliyati.

- Uslubiy bilimdonlik-

Barcha bilimlarini, ko'rgan-kechirganlarni yoshlarga tushunarli, ravon tilda yetkaza olishi, ta'lim texnologiyasi va metodlaridan boxabarlik qobiliyati.

- Kasbiy bilimdonlik

O'z fanini va predmeti sohasi bo'yicha chuqur va har tomonlama mukammal bilimlariga ega bo'la olishi, o'z ustida ishlash qobiliyati.

Amaliyotda eng obro'li, bilimdon pedagoglar birinchi navbatda insoniy bilimdonlik sohiblari bo'lishadi va shundaylarni o'quvchilar yaxshi qabul qilishadi. Chunki zamonaviy o'quvchi ko'plab ma'lumotlarga ega, uning psixologiyasi, talab-takliflarini aniq bilib til topisha olgan shaxsgina pedagogik jarayonda katta yutuqlarga erishadi.

Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o'z-o'zini boshqarishi va o'zini-o'zi safarbar qilishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo'nalishlaridan biri talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish bo'lib, u

talabalarning o'quv ishlarini faollashtirish va kasbiy ixtisoslashivuning faollashuviga olib keladi.

Har bir tarbiyachi quyidagi pedagogik –psixologik bilim, ko'nikma va malakalarni mukammal egallashi zarur. Real voqelik elementlarini sub'ekt ongida aks etishiga bilim deyiladi. Fanning metodologik asoslari, milliy g'oya, milliy mafkura va milliy qadriyatlar asosida barkamol shaxsning ma'naviy-axloqiy hamda kasbiy kamoloti qonuniyatlari, ilmiy-tadqiqot metodlari, ta'lim printsiplari, qonuniyatlari, metodlari hamda ta'limning mazmuni, uni amalga oshirish shakllarini bilish.

Shaxsning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, anatomik-fiziologik, gigienik va psixologik shakllanish qonuniyatlari, individual-ruhiy rivojlanish asoslarini bilish. Milliy hamda umuminsoniy tarbiyaning printsiplari, qonuniyatlari hamda amalga oshirishning yo'l-yo'riqlari, yoshlarni ongli va asosli ravishda kasb tanlashga yo'naltirish, ularni kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash printsiplarini va kasbiy istiqbolini ko'ra bilish.

Ta'lim jarayonini boshqarish (menejment) printsiplari, qonuniyatlari hamda metodlarini bilish. Pedagogik jarayonni dignostika qilish, uning monitoringini olib borish yo'l-yo'riqlarini, global pedagogik hamda psixologik ta'lim-tarbiyaning qonuniyatlarini bilish. Pedagogika va psixologiya fanlarining o'zaro aloqadorligi qonuniyatlarini, fanlararo va fanlar sistemasida tutgan o'rnini bilish. Pedagogika va psixologiya fanlarini ijtimoiy hayot rivojida tutgan o'rnini, milliy tarbiyada umumpedagogik metodlarni qo'llay olish hamda echimini kutayotgan fundamental muammolarni bilish.

Ta'lim texnologiyalari tarafdorlari tomonidan ta'limni o'qituvchining o'zi ma'suliyatni shaxsan o'z buyniga olgan holda, kafolatlangan natijaga ega bulgan texnologik jarayon darajasiga olib chikuvchi didaktik yondoshuvlar va didaktik vositalar jadal ravishda ishlab chikilmokda.

Demak, shaxsning tulaqonli rivojlanishi uchun uzluksiz ta'limning turli bosqichlarida zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltiradigan, pirovardida ta'lim

natijasi sifatida ta'lim oluvchilarning shaxsiy va kasbiy kompetentligini shakllantirishni ta'minlaydigan bunday ta'lim tizimlarini ishlab chiqishga faqatgina ta'lim jarayonining pedagogik asoslarini, uning barcha elementlarini tubdan yangilash orqali erishish mumkin.

Umuman olganda yangicha yondoshuvda ta'lim tizimida o'quv ma'lumotlari ko'rinishida ifodalangan ilgari tajribalrni o'zlashtirishga qaratilgan ta'limdan bo'lajak kasbiy faoliyatda duch kelinadigan vaziyatlarga tayyor bo'lishga qaratilgan, umuman olganda kelajakka yo'naltirilgan ta'limga o'tish ko'zda tutiladi. Ta'lim oluvchi faoliyatining maqsadi axborot ko'rinishiga ega bo'lgan ijtimoiy tajribaning ma'lum bir qismini o'zlashtirish emas, avvalombor bilimlardan foydalangan holda bo'lajak kasbiy faoliyatini amalga oshira bilish hamda butun umri davomida yangi bilimlarni egallab bora olish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, bunday ta'lim insonga o'z o'zini takomillashtirish mexanizmini "o'rnatish"dan iborat bo'ladi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishni muammoli o'qitish jarayonida amalga oshirish ham maqsadga muvofiq bo'ladi, buning mohiyati kasbiy faoliyatni yaxlit tizim sifatida ko'rish, unda tizimli faoliyat ko'rsata bilish, yangi muammo va masalalarni hal eta bilish tajribalarini shakllantirish uchun zamin yaratishga xizmat qiladigan kasbiy faoliyat elementlarini ta'lim jarayoniga kiritishdan iborat.

Quyidagi jadvalda ta'limga an'anaviy va kompetentlikka yunaltirilgan yondoshuvlarning qiyosiy tavsifi keltirilgan.

Keltirilgan tavsiflarni tahlil etish natijasida ta'limga kompetentlik yondoshuvining shakllanish shart-sharoitlarini aniqlab olish mumkin:

Ta'limga an'anaviy va kompetentlikka yo'naltirilgan yondoshuvlarning qiyosiy tavsifi

№	Ta'lim jarayoni elementlari	An'anaviy yondoshuv	Kompetentlikka yo'naltirilgan yondoshuv
1	Maqsadlar	Bilim, ko'nikma va malakalarni	Kompetentsiyalarni shakllantirishga (real mexnat

		shakllantirishga yo'naltirilgan	faoliyatiga yo'naltirilgan)
2	Ta'lim mazmuni	Davlat ta'lim standartini amalga oshiradi	Kasbiy-ta'limiy dasturlarni o'zlashtirishga qaratilgan individual yunalish. Tez moslanuvchan ta'limning natijaviyligiga erishishga yo'naltirilgan
3	Ta'limni tashkil etish shakllari	Ta'limni sinf-dars, auditoriyada tashkil etish. Ko'nikmani rivojlantirishga yunaltirilgan amaliyot	Individual, juftlikda, kichik guruhlarda va katta guruhlarda ishlash
4	Pedagogik jarayonni tashkil etish va amalga oshirish metodlari	Qat'iy dastur asosida o'qitishning sinf-dars tizimi doirasidagi bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga yunaltirilgan metodlar	Kasbiy-ta'limiy dasturlarni modullar asosida o'zlashtirishning individual va kompetentlik yondoshuviga yo'naltirilgan muammoli-faoliyatli metodlari
5	Pedagoglar faoliyatining jarayondagi o'rni	“Nasixatgo'y”, “axborot beruvchi”, baxolovchi”	“Xamkor”, “maslatsatchi”, “yordamchi”, “vositachi”
6	Ta'lim oluvchilar faoliyatining jarayondagi o'rni	“Tinglovchi”, “qabul qiluvchi”, “xotirasida saqlovchi ”	“Xamkor”, “tajriba utkazuvchi”, “tadqiqotchi”, “konstruktor-yaratuvchi”
7	Ta'lim muassasasini boshqarish tuzilmasi	Tuzilma ta'lim muassasasi faoliyatini yuritishga yo'naltirilgan	Tuzilma ta'lim muassasasini rivojlantirishga yo'naltirilgan

8	Ta'lim natijalarini nazorat qilish va baholash	Bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganligini tekshirishga yunaltirilgan (imtixonlar, testlar va xokazo)	Mutaxassisning kasbiy kompetentsi- yasini va shaxsiy sifatlarini rivojlanish darajasini aniqlashga xamda baxolash xam ta'lim olish xarakteriga yo'naltirilgan
---	--	---	---

- pedagog “boshqaruvchi”, “hamkor” sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni, hamkorlik qilish, demokratik ravishda ta'sir o'tkazish, yordam berish, ruhlantirish, talabaning shaxsiy tashabbuslariga e'tiborli bo'lish, uning shaxsini rivojlantirishga intilish pozitsiyasini egallaydi;
- talaba pedagoglar va boshqa talabalar bilan faol hamkorlik qilishga, bir-birini qo'llab-quvvatlash va uzaro ma'suliyatlilik muhitini yaratishga yunaltirilgan;
- ta'lim oluvchilar uchun ta'lim va tarbiyani tashkil etishning guruhli shakllari orqali shaxslararo munosabatlar va muloqatning xilma-xil shakllarini amaliy ravishda o'zlashtirishlari, hamkorlikda ishlash va ijod qilish quvonchini his etishlari uchun shart-sharoitlar yaratiladi;
- harakat va xulq-atvorlarning oldindan belgilab quyilgan namunasiga mosligini baholashdan voz kechish.

1.3. Zamonaviy tarbiyachilarning shaxsi va ularga qo'yilgan talablar.

Bo'lajak tarbiyachining kasbiy mahorati shunday bir idealki, unga intilish kerak bo'ladi. Kasbiy shakllanish bu uzoq davom etuvchi jarayon bo'lib, bir nechta bosqichlarga ajraladi. Xar bir talaba uchun bosqichlarning davomiyligi xamda miqdori alohida belgilanadi. Bo'lajak tarbiyachining ijodiy individualligi o'z ifodasini pedagogik amaliyotda ifodalanish usullarida, o'z ishini rasmiylashtirishdagi o'ziga xosliklarda pedagogik vaziyatlarni xal qilishda mustaqil yechimlarni topa bilishda izlanuvchan faoliyatga layoqatning mavjud

bo'lishida faoliyat topshiriqlari hamda usullarini tanlashga erkin yondoshishdan, tashabbuskorlikda o'z taklif va g'oyalarini erkin ifodalashda namoyon bo'ladi.

Bugungi kun zamonaviy tarbiyachining shaxsiga va ularga qo'yilgan talablar:

-Bilimdonligi,

-Izlanuvchan,

-Chet tillarini bilishi,

-Texnika vositalari bilan ishlay olishi,

-ta'lim texnologiyalari va tarbiya texnologiyalarini qo'llay olishi va hokozlar.

Bo'lajak tarbiyachining kasbiy mahorati shunday bir idealki, unga intilish kerak bo'ladi. Kasbiy shakllanish bu uzoq davom etuvchi jarayon bo'lib, bir nechta bosqichlarga ajraladi. Xar bir talaba uchun bosqichlarning davomiyligi xamda miqdori alohida belgilanadi. Bo'lajak tarbiyachining ijodiy individualligi o'z ifodasini pedagogik amaliyotda ifodalanish usullarida, o'z ishini rasmiylashtirishdagi o'ziga xosliklarda pedagogik vaziyatlarni xal qilishda mustaqil yechimlarni topa bilishda izlanuvchan faoliyatga layoqatning mavjud bo'lishida faoliyat topshiriqlari hamda usullarini tanlashga erkin yondoshishdan, tashabbuskorlikda o'z taklif va g'oyalarini erkin ifodalashda namoyon bo'ladi.

Tarbiyachining ijodiy induvidualligi uning induvidual xususiyatlari yahni ilmiy fikrlashning tarkib topganligi, ishga ijodiy yondoshishi, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga intilishi va boshqalarning rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Bunday tarbiyachining kasbiy faoliyati uning hamkasblarga nisbatan yangicha yondoshuvi hamda vositalarini topish borasida tinmay izlanish olib borishida ifodalanadi. Ijodiy induviduallik mohir ijodkor tarbiyachilar faoliyatida aniq ko'rinadi.

Bo'lajak tarbiyachining ijodiy induvidualligini rivojlantirish va takomillashtirishning psixologik pedagogik sharoitlari qarama-qarshilikni xis qilish, ularning yechimini topishdagi o'ziga xoslik va maqsadga muvofiqlikda, kasbiy xislatlarning tarkib topishida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy ijodkor tarbiyachi pedagogik faoliyatining usuli yoki ijodkorlikdan birini tanlashda nafaqat o'zligi hamda hayotiy maqsadlarini

ro'yobga chiqaradi. Bu bilan tarbiyachi o'zini sifat jihatidan ham o'zgartiradi. Psixologik to'siqlarni yengib o'tadi va kasbiy ahamiyatli sifatlarni rivojlantirish imkoniyatlarini qidiradi. Umuman olganda tarbiyachining faoliyati birinchidan innovatsion yo'naltirilganlik, ikkinchidan ijodkorlik faoliyati jarayonidagi individuallik sifatida ifodalanadi. Bo'lajak tarbiyachi o'z-o'zini takomillashtirmasdan turib, individuallikni rivojlantirmay turib, taraqqiy etishi, kasbiy faoliyatda yuqori maqega erishish mumkin emasligini anglab yetishi lozim. Chunki kasbiy zaruriyatga oid sifatlarni hayotiy maqsad sifatida rivojlantirmasdan turib, yangi texnologiyalarni egallash, o'z texnologiyalarini qadriyatlar yo'nalishi sifatida ishlab chiqish mumkin emas.

Aynan ushbu ikki yo'nalishni pedagogning ijodiy individualligini ko'rsatkichi sifatida qabul qilish mumkin. Har qanday ijodkor tarbiyachi ning individualligi umuman olganda, nazariya va amaliyotda mahlum bo'lgan usullardan tarkib topuvchi o'ziga xos faoliyat uslubini namoyon qiladi.

Tarbiyachining pedagogik uslubi bu shaxs tomonidan o'z individualligini hayotiy faoliyat sharoitlariga uyg'unlashtirish tizimi shaxs kasbiy faoliyatidagi ijodkorlikning manbai va ijodiy faoliyat natijasi ko'rinishida o'zligini namoyon qilish vositasidir. Tarbiyachining individualligi ikkita: psixologik xamda shaxsiy jihatni ajratib ko'rsatish mumkin. Ular pedagogik amaliyotda umumiy va kasbiy qobilyatlarni, shuningdek, kasbiy motivatsiyaning namoyon bo'lish darajasi bilan belgilanadi. Yetarli darajada rivojlangan qobilyat, maqsad va ehtiyojlar doirasi qanchalik keng bo'lsa, tarbiyachining darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Bo'lajak tarbiyachining kasbiy faoliyatida rivojlanishni tahminlovchi asosiy ziddiyat inson qobilyatlari hamda pedagogik faoliyat talablari o'rtasidagi tafovut bilan o'lchanadi. Pedagogik amaliyot jarayonida yuzaga keluvchi ziddiyatlarni xar bir tarbiyachi o'z imkoniyatlari va qobilyatlari darajasida xal qiladi. Bu faoliyat tarbiyachining individual uslubini belgilab beradi.

Bo'lajak tarbiyachida o'z-o'zini boshqarish, qathiylik, jurhatlilik, qo'rqmaslik, atrofdagi insonlarga xurmat va ehtiborni kamchiliklarni his qilgan holda o'z imkoniyatlariga ishonish, o'z-o'zining faoliyatini baxolashda

xaqqoniylik, kuchli iroda, o'z kuch – quvvatini yo'naltira olish faoliyat va maqsadni amalga oshirish yo'lida imkoniyatlarni jamlay olish, belgilangan maqsadni amalga oshirishda o'z faoliyatini boshqarib borish, aqliy faollik va o'zgaruvchan sharoitlarda o'z axloqini qayta ko'ra olish, shaxsni harakatga keltiruvchi kuch va ijtimoiy olam bilan o'z imkoniyatlarini qiyoslay olish omili sifatida o'z-o'zini xurmat qilish sifatleri rivojlangan bo'lsa, u kasbiy mahorat darajasiga erisha olishi mumkinligi aniqlangan.

Bundan tashqari kasbiy mahoratli tarbiyachi qo'shimcha kuch-quvvat beruvchi aniq yuqori g'oyalarni ko'zda tutuvchi maqsadning mavjudligi, faoliyatning tashkillashtirilganligi va aniqligi intiluvchanlik bu yo'lda butun kuch-quvvatini sarflay olish kabi xislatlarga ega bo'ladi. Bu esa bo'lajak tarbiyachining kasbiy mahorati boshqa mutaxassislarining individualligidan yuqorida qayd etilgan sifatlarning mavjudligi bilan farqlanishi bilan ko'rsatadi.

Pedagogik mahoratning asosi pedagogik bilimdonlikdir. Pedagogik bilimdonlik deganda konkret tarixiy davrda qabul qilingan me'yorlar (normalar), standartlar va talablarga muvofiq pedagogik vazifani bajarishga qobillik va tayyorlik bilan belgilanadigan integral kasbiy-shaxsiy tavsifnoma tushuniladi.

Pedagogik bilimdonlik ya'ni kompetentlik pedagogik sohada mahorat bilan ishlayotgan kishining ta'lim va tarbiya ishida insoniyat to'plagan barcha tajribalardan ratsional foydalanish qobiliyatini ko'zda tutar ekan, demak, u etarli darajada pedagogik faoliyat va munosabatlarning maqsadga muvofiq usullari va shakllarini egallashi lozim bo'ladi.

2-BOB. ZAMONAVIY TARBIYACHILARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHGA ZAMONAVIY YODASHUVLAR.

2.1. Zamonaviy tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning yo'llari.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikning bosh ko'rsatkichi bu insonga, shaxsga yo'nalganlikdir. Kasbiy-pedagogik kompetentlik pedagogik voqelikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi. Bu xislat pedagogik jarayon mantig'ining yaxlitligicha va butun tuzilmasi bilan birgalikda ko'ra olish, pedagogik tizimning rivojlanish qonuniyatlari va yo'nalishlarini tushunish imkoniyatini ta'minlaydi, maqsadga muvofiq faoliyatni konstruktsiyalashni osonlashtiradi.

Kompetentlik o'qituvchi uchun o'ta muhim bo'lgan uchta holat bilan bog'langan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallashni taqozo etadi:

- odamlar bilan o'zaro aloqada bo'lishda, madaniy muloqotda bo'lish;
- fani sohasi bo'yicha axborotlarni qabul qila bilish va uni o'qitish mazmuniga moslab qayta ishlash va undan mustaqil tahsil olishda foydalana olish;
- o'quv axborotlarini boshqalarga bera olish.

Kasbiy-pedagogik kompetentlik asosan to'rtta komponenti bilan xarakterlanadi:

- shaxsga, insonga yo'nalganlik;
- pedagogik voqelikni izchil idrok etish;
- fan sohasiga yo'nalganlik;
- pedagogik texnologiyalarni egallash.

Hozirgi ta'lim sharoitida kasbiy-pedagogik b kompetentlik yana uch komponent bilan to'ldiriladi:

- bilimdonlik, umuman, o'z faoliyatini jahon pedagogik madaniyati darajasida ishlab chiqilgan tajribalar asosida tashkil etish qobiliyati, unga va vatanimizdagi pedagogikaga integratsiyalasha olish;
- o'z safdoshi tajribasi va innovatsion tajribalar bilan o'zaro samarali munosabat o'rnatish qobiliyati;

- o'z tajribalarini umumlashtirish va boshqalarga bera olish malakasida namoyon bo'ladi.

Pedagogning kasbiy kompetentlik kreativlik bilan xarakterlanadi.

Kreativlik – bu kasbiy hayot usuli, ko'p qirrali ta'lim jarayoni va tizimining maqsadlari, mazmuni, texnologiyalari sathida yangi pedagogik voqelikni yaratish istagi va malakasidir. Kreativlik o'qituvchiga innovatsion o'zgarishlar oqimiga moslashib olishiga yordam beradi.

Har qanday darajadagi kasbiy bilimdonlik pedagogik refleksiya qodirdir. Refleksiya – fikrlashning maxsus usuli bo'lib, pedagogik voqelikka, tarixiy-pedagogik tajribaga, muayyan kasbiy mavqening tashuvchisi bo'lgan o'z shaxsiyatiga qayta nazar tashlashdir.

Yuqoridagi kasbiy-pedagogik kompetentlikni tashkil yetuvchi barcha komponentlar murakkab tuzilmani hosil qilib, mutaxassisning «ideal modeli»ni shakllantira boradi va pirovard natijada zich birlashib ketadi hamda o'qituvchi shaxsi faoliyati tavsifini belgilaydi.

Kompetentlik faqat faoliyat jarayonida, konkret kasb doirasida namoyon bo'ladi va baholanadi. Pedagogik muhitda o'qituvchi faoliyatini baholashda, odatda, «pedagogik madaniyat» termini qo'llanadi. Pedagogik madaniyat kasbiy faoliyatning individual mazmuni bilan bog'lanadi. Pedagogik kompetentlik tarbiyachining yuksak natijalarga erishishini ta'minlaydi.

Pedagogik madaniyat faoliyat va munosabatlarga estetik shakl beradi. Pedagogik faoliyat pedagogik madaniyat tushunchasi tahlili omili bo'lib xizmat qiladi.

Bilim manbai sanalgan amaliyotning ahamiyati xususida so'z yuritganda bilish jarayonining mohiyatini ham ta'kidlab o'tish joiz.

Bilish - murakkab dialektik jarayon bo'lib, jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, so'ngra amaliyotga o'tish yo'idir. Bilish shaxs uchun muhim ham o'zlashtirilmagan narsa, voqea va hodisalar mohiyatini ong yordamida anglash jarayonidir. Obyektiv borliqni bilish uni sezishdan boshlanadi.

Sezish ongning tashqi olam bilan bo'ladigan chinakam aloqasidir. Sezish tevarak-atrofdagi voqealik, narsa va hodi-salarning sezgi organlari (bizga ma'lumki, ular beshta)ga ta'sir etuvchi ayrim sifat, belgilarning ongda aks etishidir. Bunda har bir organ, har bir analizator I.P.Pavlov ta'kidlab o'tganidek, narsalarning ayrim eng muhim sifatlarini his ettiradi. Sezish muayyan narsa, voqea-hodisalar mazmunini ongda idrok etilishiga olib keladi.


Idrok - sezish a'zolari orqali ongga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning unda (ongda) yaxlitligicha aks etish jarayonidir.

Sezish va idrok qilish yordamida bilish jarayonida tasavvur ro'y beradi. Tasavvur inson ongida uzoq muddat saqlanib qoladigan sezishlar va idrokning izidir. Yoki boshqacha aytganda, tasavvur — sezgi a'zolariga qachonlardir ta'sir etgan hamda idrok qilingan narsa va voqea-hodisalarning ongdagi yaqqol hissiy obrazidir. Tajriba vositasida odamda tasavvur zaxirasi boyib, ko'payib boradi. Tasavvur fikrlashda, tushunchalarning tarkib topishida muhim rol o'ynaydi. Tasavvur muayyan umumlashmalarning mavjudligi bilan bog'liq. Sezish, idrok va tasavvur bilishning muhim tarkibiy qismlari bo'lsada, ular ham haqiqiy voqealikni bilish muammosini to'la hal etmaydi. Bilish jarayonining eng yuqori bosqichida tafakkur yuzaga keladi.

Jonli mushohada va tafakkur doimo odamning amaliy faoliyatiga asoslanishi kerak. Odam tabiat va ijtimoiy jamiyat qonuniyatlarini ochib, o'z faoliyatida ulardan foydalanishga intiladi. Har qanday nazariy bilimning qiymati uning amaliyotga qanchalik xizmat qilishi bilan belgilanadi. Nazariya amaliy faoliyat mohiyatidan kelib chiqib asoslanadi hamda amaliy faoliyatning yaxshiroq yo'lga qo'yilishiga xizmat qiladi. Biroq, amaliyot ayni vaqtda bilimning to'g'riligini tekshirish vositasi hamdir. Nazariy g'oya, fikr amaliyotda tekshirilgan va u orqali tasdiqlangandagina u inson bilimlarining muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Demak, bizga bilim amaliyotdan sezgi idrok, tasavvur va tafakkur asosida hosil bo'lishi va yana amaliyotga qaytib borishida namoyon bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bilim amaliyotga o'zining ilgarigi ko'rinishida emas, balki ancha

boyigan ko'rinishida, ancha yuqori darajada qaytib boradi. Biz bu holni quyidagi holatda ko'rishimiz mumkin (2-shakl).



2-shakl. Bilimning amaliyot davomidagi yuksalishi.

Bilish jarayonida bilim hosil bo'ladi. Bilim - odamlarning ijtimoiy tarixiy amaliyot jarayonida to'plagan umumlashgan tajribasidir. Bilim obyektiv borliqni to'g'ri aks ettiradi. Eng to'g'ri va mukammal bilimlar ham o'z navbatida doimiy emas, balki ijtimoiy taraqqiyot jarayonida o'zgarib boradi.

Bilimlar asosida ta'lim oluvchilarning kuzatuvchanlik, tafakkur, xotira singari bilish qobiliyatlari rivojlanadi, ularda e'tiqod hosil bo'ladi, ilmiy dunyoqarshni shakllantiruvchi g'oyalar tizimi tarkib topadi.

Kasbiy kompetentlikni shakllantirishda o'qituvchining o'quv adabiyotining shakllari va turlari haqida tasavvurlarga ega bo'lishlari ham talab etiladi.

O'quv adabiyotlari – muayyan ta'lim turi (yo`nalishi yoki mutaxassisligi) o'quv rejasida qayd etilgan fanlar bo'yicha tegishli o'quv dasturlari asosida zarur bilimlar majmuasi keltirilgan, o'zlashtirish uslublari va didaktikasi yoritilgan (shu jumladan, xorijiy tarjimalar) manba bo'lib, ikki xil shaklda tayyorlanadi:

- **An'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlar** – ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlari, ma'lumotlar hajmi, shriftlari, qog'oz sifati, muqova turi va boshqa ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda qog'ozda chop etiladigan manba;

- **elektron o'quv adabiyotlar** – zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo'lgan manba.

O'quv adabiyotlarining turlari.

Uzluksiz ta'lim tizimi o'quv tarbiyaviy jarayonida o'quv adabiyotlarining quyidagi turlari qo'llaniladi: darslik, o'quv qo'llanma, lug'at, izohli lug'at,

ma`lumotlar to`plami, leksiyalar kursi, leksiyalar to`plami, metodik ko`rsatmalar, metodik qo`llanmalar, ma`lumotlar banki, dayjest, sharh va boshqalar.

Darslik – davlat ta`lim standarti, o`quv dasturi uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqlol g`oyasi singdirilgan, muayyan o`quv fanining mavzulari to`liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o`zlashtirilishiga qaratilgan hamda turdosh ta`lim yo`nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr.

U yoki bu ta`lim turining maqsad va vazifalarini qamrab olgan, bilim oluvchilarning yoshi va boshqa hususiyatlarini hisobga olgan o`z darsliklari bo`ladi. Darslikda nazariy ma`lumotlardan tashqari, amaliy-tajriba va sinov mashqlari bo`yicha zarur ko`rsatmalar beriladi.

O`quv qo`llanma – darslikni qisman to`ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo`yicha tuzilgan va asoslarining chuqur o`zlashtirilishini ta`minlovchi, ayrim bob va bo`limlarni keng tarzda yoritishga yoki amaliy mashq va mashg`ulotlar echimiga mo`ljallangan nashr.

O`quv qo`llanmada muayyan mavzular darslikka nisbatan kengroq yoritiladi. Masalan, «Mexanika»- fizika fanining mexanika qismiga bag`ishlangan o`quv qo`llanma. «Fizikadan masalalar to`plami»- fizika fani bo`yicha masala va mashqlar yechishga mo`ljallangan o`quv qo`llanma va hokazo.

Lug`at – aniq bir tartibda joylashgan so`zlar (yoki so`z birikmasi, idiomalar va hokazo) to`plami, ularning mazmuni, ishlatilishi, kelib chiqishi, boshqa tildagi tarjimai to`g`risida ma`lumot beruvchi yoki so`zning tushunchasi, u bilan belgilanuvchi predmetlar haqida axborot beruvchi nashr.

Izohli lug`at – so`zlarning mazmunini izohlaydigan, har bir so`zning grammatik, etimologik va stilistik tavsifi berilgan, ularni qo`llashga oid misollar va boshqa ma`lumotlar keltirilgan, qo`shimcha adabiyot sifatida foydalaniladigan nashr.

Ma`lumotlar to`plami – foydalanishga qulay shaklda yaratilgan muayyan fanni yoki ta`lim yo`nalishini o`zlashtirish uchun zarur bo`lgan, isbot talab qilmaydigan ma`lumotlar, ilmiy ko`rsatkich va o`lchamlar, turli belgi va

raqamlardan, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, amaliy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalardagi qisqa ma`lumotlardan tashkil topgan nashr.

Ma`lumotlar to`plamida bir qator muhim ilmiy-amaliy masalalarni yechish namunalari keltirilishi lozim.

Leksiyalar kursi – fanning o`quv dasturi bo`yicha undagi barcha mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo`shimcha o`quv adabiyotlar ko`rsatilgan, o`z-o`zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan nashr, leksiya kursining nomi tegishli fan nomi bilan ataladi.

Leksiyalar to`plami – muayyan fanning o`quv dasturi bo`yicha undagi ayim mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo`shimcha o`quv adabiyotlar ko`rsatilgan, o`z-o`zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan, davriy ravishda ilmiy-tadqiqot izlanishlar asosida yangilanib turiladigan, ta`lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi bo`yicha chiqariladigan kichik adadli tarqatma material.

Metodik (uslubiy) ko`rsatma – muayyan fanning o`quv dasturi bo`yicha kurs ishlari (loyihalari), laboratoriya va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq va batafsil ifodalangan hamda ushbu fan bo`yicha talabalarda zarur amaliy ko`nikmalar hosil qilishga mo`ljallangan, ta`lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik adadli tarqatma material.

Metodik qo`llanma – o`qituvchilar (professor-o`qituvchilar) va bilim oluvchilar uchun mo`ljallangan bo`lib, unda bir darsning maqsadi, dars o`tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg`ulotlar, qo`shimcha topshiriqlar, va boshqalar haqida tavsiyalar bayon qilinadigan, ta`lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

Sharh – jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadigan me`yoriy-huquqiy hujjatlarni, shuningdek, bahsga loyiq asarlarni, g`oyalarni, fikrlarni va

ta'riflarni izohlovchi, muayyan masalalar echimini ko'rsatuvchi, keng ommaga mo'ljallangan qo'shimcha adabiyot sifatida foydalanilgan nashr.

Dayjest – ilmiy, ilmiy-uslubiy, o'quv, davriy, adabiyotlar, hukumat va turli tashkilotlar faoliyatiga tegishli qonunlar qarorlar, nizomlar mazmunining qisqacha bayoni va sharhi keltirilgan, sohalarga oid ma'lumotlar to'plami sifatida foydalaniladigan doimiy nashr.

Elektron darslik – kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarador o'zlashtirilishiga mo'ljallangan bo'lib:

-o'quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklda;

-o'quv materiallar verbal (matn) va ikki o'lchamli grafik shaklda;

-multimedia (ko'p axborotli) qo'llanmalar, ya'ni ma'lumot uch o'lchamli grafik ko'rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklda;

- taktil (his qilinuvchi, seziladigan) hususiyatli, o'quvchini «ekran olamida» stereo nusxasi tasvirlangan real olamga kirishi va undagi ob'ektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi.

Ma'lumotlar banki - axborot texnologiyalarining imkoniyati va vositalari asosida yaratilgan, statik va dinamik rejimi tuzilgan, tovush va rangli tasvirlar bilan ta'minlangan, katta hajmdagi axborotlarni o'z ichiga qamrab olgan va ularni turli ko'rinishda (jadval, diagramma, gistogramma, matn, rasm, va hokazo) bera oladigan, o'quv jarayonida bilim oluvchilar tomonidan o'z ustida mustaqil ishlashi va o'z bilimlarini nazorat qilishi uchun qo'llaniladigan, doimiy ravishda to'ldirib boriladigan, keng doirada foydalanishga mo'ljallangan, tegishli vakolatli davlat tashkilotida qayd etilgan sohalar bo'yicha ma'lumotlar to'plami.

Shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi munosabat xarakteri ham har qanday ijtimoiy faoliyatni o'z-o'zini tarbiyalash bilan bog'lashni taqozo etadi. O'z-o'zini har tomonlama yuksaltirish - bu hayotning qat'iy talabi, kishilarni bu talabni bajarishga odatlantirish esa barcha mehnat jamoalarining, muassasalarning muhim vazifasidir.

Ta'lim va tarbiya jarayoni ta'sirchanligining yanada yuksak bo'lishi o'qituvchining ilmiy salohiyatiga, yoshlar oldidagi obro'siga, shaxsiy sifatlariga, ilmiy iste'dodiga, ta'lim sohasidagi tajriba va mahorati hamda o'quvchi yoki talabalar bilan o'rnatilgan do'stona munosabatiga bog'liqdir.

Zamon talablari professor-o'qituvchilarning o'zlarida mavjud bo'lgan bilim va saviya bilan cheklanib qolmasdan, xorijiy mamlakatlar tajribasini qunt va sabot bilan o'rganib, mag'zini chaqib, undan keyin o'z talabalariga saboq berishlari zarurligini taqozo etadi.

Pedagogik faoliyat samarasi o'qituvchining pedagogik qobiliyati qay darajada shakllanganligiga ham bog'liqdir. Qobiliyat-faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi, deb ta'kidlanadi. Jumladan, bilish qobiliyati, tushuntira olish qobiliyati, nutq qobiliyati, obro' orttira olish qobiliyati, muomala qila bilish qobiliyati kabilar.

2.2. Tarbiyachining o'z ustida ishlashi – kasbiy kompetentlikni shakllantirishning yetakchi vositasi sifatida.

Kasbiy kompetentlikni shakllanishining asosi talabalik davridan boshlanishi zarur. Bo'lajak pedagog didaktika, umumiy va xususiy pedagogika va metodilarga oid bilimlarni to'liq egallab olgandan keyin, muayyan fandan bilim berish uchun shu fandagi bilimlarni puxta egallagan bo'lishi shart. O'z fani bo'yicha bilimlarni yaxshi o'zlashtirmagan kishi, pedagogika nazariyasi va amaliyotini qanchalik yod olgan bo'lmasin bolalarga to'liq bilim bera olmaydi. O'qituvchi o'qitayotgan predmetini va uning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqarli qilib o'quvchilarga etkaza olishi ularning shu predmetga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Professorlar R.X. Jo'rayev va S.T. Turg'unovlarning qayd etishicha **mustaqil ta'lim** - bu insonning o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida ajdodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy harakatlar jarayoni. Bunda insonning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari, mustaqil fikrlash qobiliyati aso-siy rol o'ynaydi.

Bugun mamlakatimizda yuz berayotgan buyuk o'zgarishlar fuqarolarimizning turmush tarzini qamrab olmoqda va jamiyatning har bir a'zosini yuksak darajada

rivojlangan bo'lishini talab etmoqda. Bunday sharoitda o'z-o'zini tarbiyalash va va o'z ustida ishlash doimiy. Har tomnlama muhim jarayon bo'lib qolmoqda.

Pedagogik faoliyatda o'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash o'qituvchi shaxsi uchun zarur bo'lgan barcha ma'naviy kuchlarning jadal o'sishini ta'minlaydi. O'z ustida ishlash davomida o'zini idora qilish rivojlanadi, ong bilan xulqning birligi ta'minlanadi, nazariya amaliy faoliyatga joriy etiladi.

Har bir ishni chuqur anglaydigan yangi kishi shakllanadi, e'tiqodlar mustahkamlanadi, ijtimoiy axlok ko'nikmalari qaror topadi. Umuman o'z-o'zini tarbiyalash ongli, yuksak axloq va faol ijtimoiy-foydali faoliyat uchun zarur bo'lgan sifatlarni shakllantiradi.

“O'z-o'zini tarbiyalash” iborasi pedagogik adabiyotlarda asosan o'tgan asarning o'rtalarida ishlatilgan bo'lsada, o'z-o'zini takomillashtirish haqida qadimdan fikr yuritiladi. O'tmishning ko'pgana faylasuflari, pedpagoglar o'z-o'zini takomillashtirishning mohiyati uning jamiyat va inson hayotidagi rolini ochib berishga urinishgan.

Pedagogika shaxsning shakllanishini ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan jarayon deb hisoblaydi va o'z-o'zini tarbiyalashni dialektik nuqtai nazardan tushuntiradi. Inson tabiati shunday tarkib topganki, odam faqat o'z zamondoshlarining takomillashtirilishi, ularning baxt-saodati uchun ishlabgina o'zining ham mukammal bo'lishiga erisha oladi.

Odamning ma'naviy o'sishini jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlardan ajralgan deb qarash mumkin emas. Har qanday faoliyatda o'z-o'zini o'zgartirish sharoitlarning tubdan o'zgartirilishi bilan birga sodir bo'ladi.

Inson tevarak-atrofdagi olamni o'zgartirish bilan birga o'zini ham o'zgartiradi. Mana shunday falsafiy asosda qaralganda o'z-o'zini tarbiyalash – bu insonning butun ijodiy, o'zgartuvchanlik, yaratuvchanlik faoliyatining ajralmas qismidir. Tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash tevarak-atrofdagi olamni yaxshilashga qaratilgan faoliyat jarayonida amalga oshiriladi.

Ma'lumki, inson ijtimoiy mavjudodgina bo'lmay, tabiat mahsuli hamdir. Uning dunyoga kelishi, o'sishi hayotning umumiy qonuniyatlari birinchi navbatda o'z-o'zining boshqarish va mustaqil rivojlanishi kabi jarayonlarga ham bog'liqdir.

Mustaqil rivojlanish shaxs o'zi anglagan yoki anglamagan bo'lishi mumkin. Shaxs o'z rivojlanishini anglagandagina bu rivojlanish o'z-o'zini o'stirishga aylanadi. O'z-o'zini o'stirish o'z navbatida rivojlanib borib shaxsning takomillashtirishga binobarin o'z-o'zini tarbiyalashga aylanish mumkin.

Shaxsni shakllantirishda tarbiya mustaqil rivojlanishning anglangan (o'z-o'zini rivojlantirish, takomillashtirish) va anglanmagan (moslashishi, ergashish kabi) shakllari bilan bog'liqdir. Kishi o'z shaxsining shakllanishida hamma vaqt bevosita ishtirok etadi. Lekin bunday ishtirokning anglangan va faollik darajasi har xil bo'ladi. Masalan, kishi o'zi anglamasdan birov qilayotgan ish-harakatni unga ergashib bajarishga kirishadi. Bunday ergashish borib-borib ongli haraktga, ongli harakat o'z navbatida o'z-o'zini tarbiyalashga aylanadi.

Tarbiya kuchayib, o'z-o'zini tarbiyalashga aylanishi uchun muayyan ichki zaminlar va tashqi sharoitlar zarur bo'ladi. Tadqiqotchilar ichki zaminlar qatoriga o'z-o'zini anglab bilishining yuksak darajada bo'lishini (A.YA.Aret, A.A.Bodalev, A.G.Koralev), o'z-o'zini boshqara olishni (V.I. Selivanov, A.I. Visotskiy) tez rivojlanishga bo'lgan ehtiyojni kiritadilar.

Hozirgi zamon va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o'quvchilarga etkaza olish va nihoyat o'quvchilarni ham ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o'rgata olishni talab qiladi.

Shuning uchun o'qituvchi avvalo tadqiqotchilik malkalarini egallashi zarur. tarbiyachi ilmiy- tadqiqot ishlari olib borish davomida ma'lumotlarni to'playdi., tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. U fan xulosalaridan o'zining amaliy faoliyatida foydalanish jarayonida hozirgi zamon o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan juda muhim fazilatlarni egallaydi.

Pedagogik tajriba tarbiyachining o'quv ishlari jaroyonida egallaydigan bilim

va ko'nikmalari yig'indisidir. Bu tarbiyachining pedagogik mahorati bo'lib, u pedagogika fanini rivojlanishida boshlang'ich omil hisoblanadi. Pedagogik tajriba to'plash tizimi:

1. Maqsadni belgilash (nimani o'rganaman).
2. Tahlil etish, umumlashtirish xulosa qilish.
3. Yutuqlarini aniqlash.
4. Ma'lumot to'plash.

tarbiyachilari ilg'or tajriabalarini o'rganishning taxminiy tarkibi:

1. Nutq texnikasi va madaniyati:
 - a) darsda bilim berishda o'quvchilar bilan alokaga kirishishda tarbiyachi nutqning ishlatilishini baxolash;
 - b) nutk texnikasini egallaganlik darajasi;
 - v) tarbiyachi nutkning ifodaligi va xis- tuyg'uga boyligi.
2. Professional pedagogik muloqoti
 - a) turli holatlarda turli va kutilmagan vaziyatlarda xam muloqotga kirisha olishi, muomala qili olishi;
 - b) dars jaroyonida o'z kuchi va tayyorligini hisobga ola bilish o'zining ish uslubini va unga qo'yilgan talablarni bajara olish;
 - v) Pedagogik nazokat va uni kullashni bila olish;
3. Professional pedagogik ta'sir etish
 - a) shaxsga ta'sir etishda tezlik bilan kerak bo'lgan uslublarni tanlay olishi va o'z vaktida ishlata bilishi;
 - b) O'rganish bo'lib qolgan ish tartibidan ketishni bilish;
 - v) pedagogik ta'sir ko'rsatishda vaziyatlarni echishda kerakli bo'lgan mimika, pantomima va harakatlarni tanlay olish o'z vaktida ishlata olish.
4. Konstruktiv qobiliyati

- a) o'quvchilar qobiliyati qiziqishi bilim darajasini hisobga olish, didaktik materialidan ustalik bilan foydalanish;
- b) o'quvchilarni sinfni va yukori mukammal darajaga erishish uchun kerakli usul va vositalarni tanlay olish;
- v) o'quvchilarni va kollektivning bilimligi va tarbiyaviyligi rivojlanganlik darajasini aniklay olish;
- g) o'quvchilarni tashki qiyofasi orkali ularni darsga bo'lgan munosabatlarini anglay olishi va kerakli bo'lgan vositalarni tanlay olishi ishlatiladi.

Ta'lim-tarbiyani uyushtirishda nazariy, empirik va ilmiy bilimlar roli va o'rni beqiyos.

Ilmiy bilim ta'lim-tarbiyani takomillashtirish muammolarining yechimlarini topishda qoi keladi va u tizimli, asosli narsa-hodisalar mohiyatiga chuqur kirib boradigan bo'ladi. U empirik va nazariy darajada bo'ladi. Bilimdan empirik va nazariy bilimlarni shakllantirishda foydalaniladi.

Nazariy bilim - empirik holatlarni tushuntirish, ya'ni narsa va hodisalar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonuniyatlarni ochish-ni nazarda tutadi.

Bilim bilishni amalga oshiruvchi asosiy omil bo' lib, dunyoni bilish-ning negizini tashkil etadi va u tufayli ilm, fan, texnika-texnologiyalar rivojlanishi ta'minlanadi. Demak, bilimni obyektiv mavjudot haqi-dagi yoki muayyan sohaga oid ma'lumotlar majmuyi, deb ham ifo-dalash mumkin. U odamlarning ijtimoiy-siyosiy amaliyot jarayonida to'plangan umumlashgan tajribasidir.

Ilmiy bilimlar, obyektiv olamni anchato'g'ri (batafsil) ifodalaydi. Ular doimiy emas, ular o'zgarib, rivojlanib, takomillashib boradi va natijada doimiy iste'moldagi bilimga aylanadi, ya'ni tadrijiy (evolu-tsion) tarzda rivojlanib turadi. Bilimlar asosida talabalarning kuzatuv-chanlik, sinchkovlik, tafakkur, xotira singari bilish qobiliyatlari rivojlanadi, ularda e'tiqod hosil bo'ladi, ilmiy dunyoqarashni shakllantiruvchi g'oyalar tizimi tarkib topadi.

O'qish - bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishning murakkab jarayoni bo'lib, o'quvchining intellektual, irodaviy vajis-moniy kuch-g'ayratini talab etadi hamda ularning rivojlanishini rag'-batlantiradi.

O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlashda kishining fazilatlari va odatlarini o'zgartirish yoki rivojlantirishga undaydigan turli ehtiyojlar katta rol o'ynaydi. Bu ehtiyojlar haqida gapirganda ilmiy dunyoqarashning ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim.

Ilmiy dunyoqarash o'z burchini tushunishga, shaxsni o'z oldiga konkret maqsad va vazifalar qo'yishga, shu maqsadlarga munosib axloqiy fazilatlarni shakllantirishga, ya'ni o'z-o'zini tarbiyalashga undaydi. O'z-o'zini tarbiyalash uchun kishining istiqbolni ko'ra bilishi, unga erishish yo'llarini izlab topa olishi, yuksak ideallarga ega bo'lishi zarur.

Jamiyat uchun foydali bo'lishni, axloqiy printsiplar qaror topishiga yordam berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan har bir shaxsda axloqiy idealga intilish paydo bo'ladi.

Axloqiy idealga erishish tabiiyki, muntazam ravishda o'z-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanishni, jamiyatning faqat bugungi manfaatlari haqida emas, balki uning kelajagi to'g'risida ham g'amxo'rlik qilishni nazarda tutadi.

Shaxsda o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojlari sifatida quyidagilarni ko'rish mumkin:

- Ijtimoiy burchni anglash.
- tarbiyachining o'zida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, o'zini yanada rivojlantirish.
- Maktab jamoasi oldida, oilada, hamkasblari orasida obro' qozonishga intilish.
- O'ziga tanqidiy qarash, o'z-o'zini to'g'ri baxolay bilish.
- Namuna (ayrim kishilarning hatti harakati, hulqining boshqalar uchun o'ronak bo'lishga intilish).
- O'z madaniy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga bo'lgan intilishlar.
- Ijtimoiy burchni anglash, axloqiy namuna va idealdan tashqari shaxsni o'z-o'zini tarbiyalashga undaydigan bevosita boshqa ehtiyojlar ham mavjud.

Shaxs jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik rivojlangan sari unda yangi-yangi ehtiyojlar. Qiziqishlar, shu bilan birga jamiyat talablarini, o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan kamchiliklarni bartraf etish, o'zini yanada rivojlantirish ehtiyoji ham paydo bo'ladi.

Demak, bu ehtiyojni qondirish zaruriyati kishini o'z-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanishga undaydi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot, jamiyatdagi chuqur ijtimoiy o'zgarishlar mustaqil bilim olishni, o'z-o'zini tarbiyalashni, axloqiy jihatdan rivojlanishni ob'ektiv zaruriyatga aylantiradi, bu esa har bir mutaxassis, yangi jamiyat quruvchisi uchun qonuniy bo'lib qolgan.

Jamiyat taraqqiyotining bu talabi birinchi navbatda barkamol shaxsni tarbiyalovchi kishilar – o'qituvchi-murabbiylarning o'z ustida muttasil ishlashlari, madaniy saviyasini oshirib borishlari orqali qondiriladi. O'z-o'zini tarbiyalash maktabini o'tmagan kishi boshqalarni o'z ustida ishlashga ruhlantira olmaydi.

O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlashga undaydigan ikkinchi muhim ehtiyoj har bir sog'lom odamga bo'lgan oilada, o'z hamkasblari oldida, jamoada, umuman jamiyatda hurmat qozonishga intilishdir.

Obro' qozonish maqsadida o'z-o'zini tarbiyalash boshqa kasb egalaridan ko'ra ko'proq pedagoglarga xos bo'lgan faoliyatdir. Chunki tarbiyaviy ishda, ayniqsa kishilarning ixtiyoriy ravishda qatnashishiga asoslangan ta'lim-tarbiya ishlarida obro'siz muvaffaqiyat qozonib bo'lmaydi.

Kompetentli yondoshuvning mohiyati, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, u insonda mustaqil ravishda bilimlarni egallash faoliyatini tash-killashtirish, refleksiya, ijodkorlik, jismoniy va ruhiy jihatdan uzini boshkara olish kunikmalarini egallash, o'z-o'zini uyushtirish va rivojlantirish kabi kobiliyat va layokatlarini shakllantirishni ta'minlaydi. Shuningdek bunga kasbiy kompetentlikni shakllantirishning didaktik modelini tuzish uchun nazariy-metodologik asos sifatida olingan o'z-o'zini rivojlantirish nazariyasi ham tulatukis mos keladi.

Ushbu paradigmada yangi strategik maksad sifatida, kup qirrali bilim, kunikma va malakalarning mikdor jihatidan ortib boradigan muayyan bir tuplamini

egallash emas, balki, shaxsning integrativ sifati hisoblanadigan kasbiy kompetentlikni shakllantirish, shu bilan birga, talabalarni ularning bevosita kasbiy faoliyatida ham, umuman butun hayotiy faoliyatlari davomida ham zarur buladigan kasbiy kompetentlikni doimiy ravishda rivojlantirib borishga, uning chegaralarini tobora kengaytirib borishga yunaltirish hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning uzluksizligiga har bir insonning imkoniyatlariga, uning ishtiyoqlari va moyilliklariga mos ravishda kasbiy madaniyat boyliklarini tulakonli egallab borish orqali, ushbu jarayonning uzilib qolishiga yul qo'ymaydigan ichki ehtiyojlari va imkoniyatlarini shakllantirish uchun poydevor yaratishga xizmat qiladigan shart-sharoitlarni ta'minlash orqali erishiladi. Ichki ehtiyojlar, faoliyatga moyillik va uni amalga oshirish mexanizmlarini egallaganlik darajasi ta'limning maqbul natijasini belgilaydi.

Bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentligini shakllantirishni uchta asosiy omilni integratsiyalash orqali ta'minlash mumkin:

Muayyan yo'nalish bo'yicha mutaxassis kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan tayanch kompetentsiyalarga mos ravishda tuzilgan va didaktik jihatdan moslashtirilgan bilimlar kompetitsiyasiga asoslangan ta'lim mazmunini tashkil etishning maqsadga muvofiq bulishini ta'minlaydigan modullilik;

ta'limning maqsadiga mos keladigan o'qitish shakllarini tanlashni belgilab beradigan - ta'limni faoliyatga ko'ra tashkil etish;

ta'lim olish - rivojlanishning uzluksiz jarayonini tashkil etish yuli bilan inson kamolotining to'la-to'kis bulishini ta'minlashga qaratilgan - ta'limni texnologiyalashtirish.

E.F. Zeer ta'kidlaganidek, kasbiy ta'limda kompetentlik yondoshuvini amalga oshirishda o'z-o'zini yo'naltiruvchi va rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari muhim urinni egallaydi, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

kognitivlikka yo'naltirilgan texnologiyalar: o'qitishning dialogli metodlari, seminar-munozaralar, muammoli o'qitish, kognitiv yo'riqnomalar, kognitiv xaritalar, vositali-mantiqiy treninglar, trening-refleksiyalar va hokazo;

faoliyatga yo'naltirilgan texnologiyalar: loyihalar metodlari, yo'naltiruvchi matnlar, kontekstli ta'lim, tashkiliy faoliyatli o'yinlar, majmuaviy (didaktik) topshiriqlar, texnologik xaritalar, texnologik jarayonlarni taqlidiy-o'yinlar orqali modellashtirish va hokazo;

shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar: interaktiv va taklidiy o'yinlar, rivojlantirish treninglari, rivojlantiruvchi psixodiagnostika va hokazo.⁴ Ta'limning maqsadga muvofiq ravishda moslashtirilgan mazmuni va shakllari o'qitish vositalarini tanlashni belgilab beradi, ular esa, o'z navbatida, texnologiyalar tizimini samarali qo'llash uchun shart-sharoitlarni ta'minlab beradi.

Tajriba ishi.

Tajriba davomida tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning, pedagog tomonidan ishlab chiqiladigan "Individual rivojlanish dasturi" quyidagi tarkibiy elementlardan tarkib topadi

- 1) Pedagogik bilimlar;
- 2) Psixologik bilimlar;
- 3) Mutaxassislik bilimlari;
- 4) Didaktik malakalar;
- 5) Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish malakalari;
- 6) Ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va shaxsiy sifatlar;
- 7) O'z-o'zini rivojlantirish maqsadlari;
- 8) O'z-o'zini rivojlantirish uchun topshiriqlar.

Quyidagi pedagogning "Individual rivojlantirish dasturi"ning namunasi keltiriladi:

3-jadval. Individual rivojlantirish dasturi

Bilim, malaka va shaxsiy sifatlar	Mavjud daraja	Istiqbol vazifalar
Pedagogik bilimlar		
Psixologik bilimlar		
Mutaxassislik bilimlari		
Didaktik malakalar: bilishga oid (gnostik) loyihalash ijodiy-amaliy (konstruktiv)		

⁴ Zeer E.F., Zavodchikov D. *Identifikatsiya universal'nykh kompetentsiy vyipusknikov rabotodatelem //Vyshee obrazovanie Rossii/ - 2007. - №2.*

tadqiqotchilik muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) tashkilotchilik izchillikni ta'minlovchi (protsesssual) texnik-texnologik malakalar		
Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish malakalari: bilishga oid (gnostik) loyihalash malakalari ijodiy-amaliy (konstruktiv) tadqiqotchilik muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) tashkilotchilik izchillikni ta'minlovchi (protsesssual) texnik-texnologik malakalar		
Ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va shaxsiy sifatlar: pedagogik fikrlash tizimlilik moslashuvchanlik mobillik ijodkorlik hozirjavoblik hissiy rivojlanganlik pedagogik refleksiya		
O'z-o'zini rivojlantirish maqsadlari		
O'z-o'zini rivojlantirish uchun topshiriqlar		

Pedagogning kasbiy jihatdan rivojlanish darajasini yana quyidagi shkala yordamida ham aniqlash mumkin (4-jadval):

4-jadval. Kasbiy rivojlanish shkalasi

№	Kasbiy kompetentlik sifatлари	Shkala ko'rsatkichlari									
		10	9	8	7	6	5	4	3	2	1
1. Ijtimoiy kompetentlik											

1)	ijtimoiy tashkilotlar va sub'ektlar bilan o'zaro munosabatda bo'la olish ko'nikma, malakalariga egalik																		
2)	kasbiy muloqot va xatti-harakat uslublarini o'zlashtira olganlik																		
2. Shaxsiy kompetentlik																			
1)	doimiy ravishda kasbiy o'sishga erishish va kasbiy malakani oshirib borish																		
2)	kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olish																		
3. Maxsus kompetentlik																			
1)	mustaqil ravishda kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish																		
2)	oddiy kasbiy-pedagogik vazifalarni to'g'ri hal qilish va o'z mehnatining natijalarini real baholash malakasiga egalik																		
3)	mutaxassisligi bo'yicha yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda izchil o'zlashtirib borish qobiliyatiga egalik																		
4. Texnologik kompetentlik																			
1)	kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish qobiliyatiga egalik																		
2)	zamonaviy didaktik vositalar (texnik vositalar, o'quv qurollari)dan foydalanish malakasiga egalik																		
5. Ekstremal kompetentlik																			
1)	favqulotda holatlarda (tabiiy ofatlar sodir bo'lganda, texnologik jarayon ishdan chiqqanda) oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik																		
2)	muammoli vaziyatlarda (pedagogik ziddiyatlar yuzaga kelganda) oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik																		

Shunday qilib, bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida yuzaga keladigan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish ehtiyoji har bir mutaxassisni o'zida

kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlarni tarkib toptirishga undaydi. Lug‘aviy jihatdan “qobiliyat”, mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon etish” ma’nosini anglatuvchi kompetentlik negizida muayyan sifatlar namoyon bo‘ladi. Xususan, pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida ijtimoiy, maxsus (psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion hamda kommunikativ), shaxsiy, texnologik va ekstremal kompetentlik kabi sifatlar aks etadi. Bir qator, xususan, A.K.Markova hamda B.Nazarovalarning tadqiqotlarida pedagogik kompetentlikning tarkibiy asoslari qayd etib o‘tilgan. Pedagogning kasbiy kompetensiyasi pedagogik (o‘quv va tarbiya) jarayonni samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta’minlaydi. Kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lish uchun pedagog o‘z-o‘zini izchil rivojlantirib borishga e’tiborni qaratishi zarur. O‘z-o‘zini rivojlantirishda pedagogga “Individual rivojlanish dasturi” qo‘l keladi. Zero, ushbu dasturda pedagogda mavjud bo‘lgan kompetentlik sifatlari va rivojlantirish zarur bo‘lgan sifat, BKMni aniq, xolis ifodalash mumkin.

Tajriba jarayonida quyidagi reja bo‘yicha tarbiyachilar uchun ilmiy-uslubiy konsul’tatsiyalarni tashkil etildi

№	Kasbiy kompetentlik sifatlari bo‘yicha olib borilgan ishlar mazmuni	Ma’ruza	Trening	Mustaqil ish
1.	Pedagogik bilimlar;	Q		
2	Psixologik bilimlar	Q	Q	Q
3	Mutaxassislik bilimlari;	Q	Q	
4	Didaktik malakalar;	Q	Q	

5	Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish malakalari;	Q		Q
6	Ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va shaxsiy sifatlar;		Q	Q
7	O‘z-o‘zini rivojlantirish maqsadlari;		Q	Q
8	O‘z-o‘zini rivojlantirish uchun topshiriqlar.		Q	Q

Tarbiyachilar uchun savollar:

1. “Kompetentlik” tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
2. Kasbiy kompetentlik nima?
3. Kompetentlik qanday holatlarda namoyon bo‘ladi?
4. Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi?
5. Ijtimoiy kompetentlik deganda nimani tushunasiz?
6. Maxsus kompetentlik negizida qanday kompetentliklar ko‘zga tashlanadi?
7. Psixologik kompetentlikning mohiyati nimadan iborat?
8. Metodik kompetentlikda qanday jihatlar aks etadi?
9. “Informatsion kompetentlik” deganda nimani tushunasiz?
10. Kreativ kompetentlik nima?
11. Innovatsion kompetentlikning o‘ziga xos jihatlari nimalarda ko‘rinadi?
12. Pedagogik faoliyatda kommunikativ kompetentlik qanday ahamiyat kasb etadi?
13. “Shaxsiy kompetentlik” tushunchasi Siz uchun qanday ma’noni anglatadi?
14. Pedagogik kompetentlik nima?
15. A.K.Markova pedagogik kompetentlikning tarkibiy asoslarini qanday ifodalagan?

16. B.Nazarovning yondashuviga ko'ra pedagogik kompetentlik qanday asoslardan tarkib topadi?

17. Individual rivojlanish dasturi nima?

18. Pedagogning individual rivojlanish dasturida nimalar aks etadi?

19. O'z-o'zini rivojlantirish deganda nimani tushunasiz?

20. O'z ustida ishlash nima?

21. Pedagogning o'z ustida ishlash modelida qanday holatlar aks etadi?

22. Pedagogning o'z ustida ishlashi qanday bosqichlarda kechadi?

23. O'zini o'zi tahlil qilish deganda nimani tushunasiz?

24. "O'z-o'zini baholash" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?

25. Shaxsning o'z-o'zini baholashi qanday omillar negizida kechadi?

26. O'z-o'zini baholash qanday formula yordamida ifodalanadi?

27. O'zini-o'zi baholash modelida qanday holatlar aks etadi?

Demak, oliy ta'lim muasasasida kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim shunday tashkil etilishi kerakki, talaba auditoriyadagi ta'lim vaqtida ham, auditoriyadan tashqaridagi vaqtlarda ham ijodiy ish bilan mashg'ul bo'lishi va quyidagilarni bajara olishi lozim:

-muammoli vaziyatlarning echimini topa bilish;

-o'z fikrini himoya qila olish va nostandart hayotiy va o'quv vazifalarni hal etishda o'zining nuqtai-nazariga ega bo'lish;

-oqish-o'rganish va amaliy faoliyatida o'zini namoyon qilishning noan'anaviy usullarini doimiy ravishda egallab borish.

Xulosa va tavsiyalar.

Pedagogik faoliyatning hamma bosqichlarida uning taraqqiyotiga erishish uzluksiz ta'limning bosh g'oyasidir. Odam ijodiy imkoniyatining doimiy

taraqqiyotini ta'minlashning pedagogik-psixologik va fiziologik asoslarini shakllantiruvchi tayanch ta'limning (umumiy va kasbiy) tashkil etilishiga tamomila yangicha metodologik yondashuvni amalga oshirish davr talabaiga aylandi.

Tarbiyachi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishda quyidagilarga erishish lozim:

- tafakkurning erkinligi, tanqidiyligi; muammolarga real yondashuv;
- yuksak darajada ishchanlik, psixofiziologik imkoniyatlarning etarli darajasi va boshqalar.

Hamma ishni, jumladan pedagogik faoliyatni ham ilmiy asosda tashkil etish murakkab bir jarayon bo'lib, uni amalga oshirish uchun:

- 1) fan va texnikadagi so'nggi yangiliklar bilan muntazam ravishda tanishib borish;
- 2) ishlab chiqarish, madaniyat, san'at va ularning kelajak taraqqiyoti bilan bevosita qiziqish;
- 3) o'quv-metodik va texnika vositalaridan foydalanishni takomillashtirib borish;
- 4) mashg'ulot jarayonini to'g'ri rejalashtirish;
- 5) ilmiy ishlarni rivojlantirib borish;
- 6) mutaxassislarning malakasini oshirib borish,;
- 7) mutaxassislardan o'rinli foydalanish;
- 8) tarbiyachilarning ish sharoiti va dam olishini takomillashtirib borish kabilarni o'z ichiga oladi.

Tarbiyachilarni mehnatini ilmiy tashkil etish deganda pedagogik jarayonni boshqarish uchun pedagogika va psixologiya fanining eng so'ngi yutuqlaridan foydalansgan holda o'z ishini ijodiy tashkil etib yangiliklar yaratish tushuniladi.

Faoliyatni gigienik, fiziologik, psixologik jihatdan to'g'ri tashkil etish muayyan kasb egasining ishlash qobiliyatini uzoq muddat saqlanib qolishi va ishining samaradorligini oshishi uchun asos bo'ladi.

Lekin ayni vaqtda, ko'pchilik tarbiyachilar o'z ishlarini vijdonan bajarganlari holda, unga o'ta ehtiyotkorona yondashishlariga, tavakkal qilmaslikka, tajribalar o'tkazmaslikka urinishlari ko'zga tashlanadi, bu esa ularning ishida haqiqiy

ijodning yo'qligini bildiradi. Bu o'z navbatida umuman muvaffaqiyatning qimmatini pasaytiradi.

Shu munosabat bilan, pedagogik ta'lim va umuman, tarbiyachi kasbida yutuqqa erishish ehtiyojini rivojlantirishni har tomonlama rag'batlantirish, tarbiyachining kasb mahoratini takomillashtirish va mobro'sining ortishi uchun sharoitlar yaratish, erishilgan yutuqlarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish va unga erishish vaziyatida ehtimol tutilgan muvaffaqiyatsizliklardan xavotirlanishdan, qo'rquvni olib tashlashga yordam berish maqsadga muvofiqdir.

Buning uchun esa har bir tarbiyachi o'z mehnatini to'g'ri tashkil etishni bilishi, o'zining barcha imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish va shu asnoda faoliyatdan qoniqish hosil qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2016 y.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni “Ma’rifat” gazetasi 1997 y 1 oktyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” “Ma’rifat” gazetasi 1997 y 1 oktyabr.
4. Mirziyoev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T. “O‘zbekiston”, 2017 y. – 47-b.
5. Mirziyoev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 y. 7 dekabr. –T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48b.
6. Kamoldinov M, Vaxobjonov B. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari. – T.: “Talqin” 2010. - 128- bet.
7. Farberman B. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. - T.: “Fan”. 2000. 146-b.
8. Golish L.V, Fayzullaeva D M. Pedagogik texnologiyalarni loyixalashtirish va rejalashtirish.- T.: TDIU, 2010 y. 149- bet.
9. Ziyomuxammedov, Tojiev M. Pedagogik texnologiya- Zamonaviy o‘zbek milliy modeli. – T.: “Lider Press”, 2009. 104 – bet.
10. Choriev R. Yangi pedagogik texnologiya-ta’lim tarbiya sifat va samaradoriligini oshirish omili. // Xalq ta’limi jurnali. 2004., 4 son. 12 bet.
11. Muslimov N. O‘qituvchi shaxsini shakllantirishning nazariy- metodologik omillari.//Xalq ta’limi , 2004 3 son 73- bet.
12. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiya. Qarshi, 2000 y. 80 bet.
13. Muxammedov G’. Hamkorlik pedagogikasi va amaliyoti WWW, pedagog.uz., 2006.04.05.
14. Yoldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: “Fan va texnologiya”, 2008. – 132 b.
15. Содиқова Ш. Мактабгача педагогика. Тўлдирилган қайта нашр. –Т.: ТДПУ, 2017 й.
16. Kayumova N. “Maktabgacha pedagogika”. TDPU nashriyoti T.: 2013 y.

17. Xasanboeva O. U. va boshq. Maktabgacha ta`lim pedagogikasi.

T.: Ilm ziyo. 2012 y.

III. INTERNET SAYTLARI:

1. [http: www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz).
2. [http: www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz).
3. [http: www.edu.uz](http://www.edu.uz).
4. [http: //ru/wikipedia.jrg/wiki/Методы обучениya.](http://ru.wikipedia.jrg/wiki/Методы_обучения)